

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROVA DILDORA ILXOMOVNA

**YANGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA VAZN VA MUMTOZ JANRLARNING
TAKOMIL XUSUSIYATLARI**

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)

Contents of the dissertation for a Doctor of Science degree (DSc)

Nazarova Dildora Ilxomovna

Yangi o‘zbek she’riyatida vazn va mumtoz janrlarning takomil xususiyatlari5

Назарова Дилдора Ильхомовна

Особенности развития стихотворных размеров и классических жанров в новой узбекской поэзии33

Nazarova Dildora Ilkhomovna

The features of the development of poetic meters and classical genres in new Uzbek poetry67

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....72

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROVA DILDORA ILXOMOVNA

**YANGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA VAZN VA MUMTOZ JANRLARNING
TAKOMIL XUSUSIYATLARI**

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/Fil855 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Quvvatova Dilrabo Xabibovna

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Qobilov Usmon Uralovich

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ernazarova Gulnoza Hamrayevna

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Oripova Gulnoza Mirodilovna

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:


Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:140104, Buxoro shahri, M.Iqbol, 11. Tel.: (+365) 221-29-14; faks: (365) 221-26-12; e-mail: bsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№973 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol, 15-uy.Tel.: (+365) 221-29-14; faks:(365) 221-26-12.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 7-avgust kuni tarqatildi.

(2026-yil 7-avgustdagi 26-1-raqamli reyestr bayonnomasi).



O.M. Fayzulloyev

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.R. Ochilova

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Z.Q. Amonova

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida she'riy vaznlar ritmikasi, ularga xos muhim belgilar, sillabik, tonik, sillabo-tonik, metrik, aruz, barmoq, erkin vazn kabilarning tipologik xususiyatlari, o'ziga xosligi, ta'sir darajasi, Sharq she'riyati lirik janrlarining tarixiy taraqqiyoti, takomil xususiyatlari, yashovchanligi, an'anaviylik, vorisiylik, novatorlik jihatlarini tekshirishga alohida diqqat qaratilmoqda. Jumladan, lirik janrlar, ularda mumtoz va zamonaviylikning uyg'unlashuvi masalasini yoritish dolzarbdir. Shu jihatdan, lirik janrlarda an'ana va novatorlik, poetik janrlar badiiy strukturasidagi sinkretlashuv, transformatsion jarayonlar, jahon she'riyati va milliy adabiyotlardagi vaznlar va ular orasidagi genetik bog'lanishlar singarilarni yaxlit holda tekshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida sillabik, tonik, sillabo-tonik, metrik she'r o'lchovlaridan foydalanishning tadrijiyligi, Sharqda shunga uyg'un ravishda barmoq va aruz tizimlarining takomil topib kelayotganligi, sinkretik ko'rinishlari (erkin – sarbast) yuzaga kelganligi, badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotiga ta'siri, mumtoz lirik janrlarning she'riyatda mustahkam o'ringa ega bo'lib borayotganligi Sharq adabiyotining ko'p asrlik an'analari mahsuli ekanligi, faol va nofaol janrlarga xos xususiyatlar yo'nalishida izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, she'riy tizimlarning bir-biriga ta'siri, uning tipologik belgilarini ochib berishga e'tibor berilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, vaznlar ritmikasi, yangi she'riyatda aruz asoslarining yangilanishi, g'azal, ruboiy, mustazod, musammat kabi mumtoz lirik janrlardagi shakliy-uslubiy izlanishlar, ularda barmoqlashish jarayoni kechganligi singarilarni yoritishga alohida diqqat qaratilmoqda.

Istiqlol davri o'zbek adabiyotshunosligida she'riy vaznlar ritmikasi, ularning yangi o'zbek she'riyatida namoyon bo'lishi, yetakchilik xususiyati va ijtimoiy-estetik omillari, yangi she'riyatda davom etib kelayotgan g'azal, musammat, mustazod, masnaviy, ruboiy, tuyuq, qit'a, fard kabi janrlarning takomil xususiyatlari, vazniy belgilari, milliy vazn – barmoqning aruziy she'rlarga ta'sirini yoritish yo'nalishidagi tadqiqotlarga katta e'tibor berilmoqda. “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz¹. Shu jihatdan, yangi o'zbek she'riyatida vaznlar ritmikasi, turlari, aruzni qo'llashdagi o'ziga xoslik, mumtoz lirik janrlarning yangi she'riyatdagi badiiy takomili, an'ana va vorisiylik, ulardagi mazmuniy ko'lamdorlik, mavzuning ijtimoiylashuvi, mumtoz janrlarning saqlanish omillari, estetik ehtiyoji kabilarni aniqlash yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi

¹ Shavkat Mirziyoyevning 20-may kuni Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida barpoetilgan “Adiblar xiyoboniga” tashrifi chog'ida so'zlagan nutqidan

Farmonlari, 2010-yil 26-fevraldagi PQ-1292-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida “Ijod” fondini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va yangi adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida” Farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². She‘riy vaznlar nazariyasi, lirika janrlari tizimida mumtoz janrlarning tadrijiyligi, takomili, g‘azal, musammat, mustazod, masnaviy, ruboiy, tuyuq, qit‘a, fard taraqqiyotini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, University of Goethe (Germaniya), Sotim Ulug‘zoda nomidagi Tojikiston davlat tillar instituti, Tojikiston milliy universiteti (Tojikiston), V.N.Tatisheva nomidagi Astraxan davlat universiteti, Tver davlat universiteti, M.A.Sholoxov nomidagi Moskva pedagogika davlat universiteti, I.A.Bunin nomidagi Yelets davlat universiteti, Moskva davlat mintaqaviy universiteti, Ural davlat pedagogika universiteti, Chuvash davlat universiteti, Moskva davlat universiteti, Perm davlat gumanitar pedagogika universiteti, Qozon federal universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Baku davlat universiteti (Ozarbayjon), shuningdek, O‘zbekiston Milliy universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Yangi o‘zbek she‘riyatida vazn va mumtoz lirik janrlar takomili yuzasidan jahon adabiyotshunosligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: poetik janrlar badiiy strukturasidagi sinkretlashuv masalasi yoritilgan (University of Goethe, Germaniya); musammat janrlariga xos transformatsion jarayonlar ochib berilgan (Tojikiston davlat tillar instituti, Tojikiston milliy universiteti, Tojikiston) jahon she‘riyati vaznlari: sillabika, tonika, sillabo-tonika, metrikaga xos jihatlar aniqlangan (Astraxan davlat

² <https://www.goethe-university-frankfurt.de/en>, <https://vdushanbe.ru/catalog/education/academy/tgiya-sotima-ulugzoda/>, <https://tversu.ru/>, <https://asu-edu.ru/>, <https://tnu.tj/index.php/ru/glavnaja/>, <https://kazan.postupi.online/vuz/kfu/>, <https://edu.ru/vuz/card/moskovskij-gosudarstvennyj-gumanitarnyj-universitet-imeni-m-a-sholohova/fgos>, <https://elsu.ru/>, <https://smapse.ru/moskovskij-gosudarstvennyj-oblastnoj-universitet/>, <https://ekaterinburg.postupi.online/vuz/urgpu/>, <https://www.chuvsu.ru/9>, https://world.uz/post/view/bakinskiy_gosudarstvennyj_universitet, <https://vuzopedia.ru/vuz/2583>

universiteti, Tver davlat universiteti, Moskva ijtimoiy-gumanitar universiteti, Yelets davlat universiteti, Moskva davlat mintaqaviy universiteti, Ural davlat pedagogika universiteti, Chuvash davlat universiteti, Moskva davlat universiteti, Qozon Federal universiteti (Rossiya Federatsiyasi), mumtoz lirik janrlar taraqqiyoti, gʻazal, mustazod, ruboiy tadriji tekshirilgan (Baku davlat universiteti, Ozarbayjon), lirik janrlar taraqqiyoti, takomil belgilari, sinkretizm hodisasi asoslangan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti, OʻzR FA Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Buxoro davlat universiteti (Oʻzbekiston).

Jahon adabiyotshunosligida sheʼriy vaznlar, mumtoz lirik janrlar takomili boʻyicha, jumladan, quyidagi ustuvor yoʻnalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: sheʼriy vaznlar nazariyasini takomillashtirish, aruz asoslaridagi yangilanishlar va barmoqqa xos xususiyatlarni aniqlash; mumtoz lirik janrlar yashovchanligining badiiy-estetik omillarini yoritish, gʻazal, mustazod musammat tizimining mumtoz va zamonaviy adabiyotdagi rivojlanish xususiyatlarini ochib berish, adabiyotshunoslikda sheʼriy tizimlar va mumtoz lirik janrlarda ijod qilish anʼanasi zamonaviy adabiyotda davom etayotganligi bilan bogʻliq mavjud qarashlarni tizimlashtirish.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Sheʼriy vaznlar va lirik janrlar boʻyicha quyidagi tadqiqotlar amalga oshirishgan: **rus, tatar va tojik adabiyotshunosligida:** L.G. Frizman, I.V. Stebleva, B. Sirus, D.V. Frolov, V.M. Jirmunskiy, A.M. Zamaliyev, O.G. Vladimirova, Y.A. Smirnov, A. Sharipov, H. Tufan³ kabi olimlarning turli darajadagi izlanishlarida jahon sheʼriyatidagi vaznlar, mumtoz lirik janrlar haqidagi qarashlar oʻrganilgan.

Oʻzbek adabiyotshunosligida esa A.Fitrat, M. Shayxzoda, I. Sulton, U. Toʻychiyev, A.Rustamov, Y.Isʼhoqov, A.Hayitmetov, S. Mirzayev, O. Nosirov, A. Abdugʻofurov, R. Orzibekov, A. Hojiahmedov, H. Boltaboyev, Sh. Sirojiddinov, N. Jabborov, N. Afoqova, I. Adizova, D. Yusupova, B. Qodirov, M. Berdimurodova, M. Tojiboyeva, N. Muxitdinova, Z. Qobilova, G. Xalliyeva, Sh. Rahmonova, Y. Maxammadiyeva, T. Ruziboyev, F. Toʻxtamuratov, Sh. Amonov, G. Oripova G. Boltayevalarning tadqiqotlarida oʻzbek aruzining turli qirralarini yoritish asnosida vazn va lirik janrlar nazariyasi bilan bogʻliq ilmiy kuzatishlar amalga oshirilgan⁴.

³Фризман Л.Г. Жизнь лирического жанра. –М.: Наука, 1973. – 145 с.; Стеблева И.В. Поэзия тюрков VII-VIII веков. –М.: Наука, 1965. – 148 с.; Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. –М.: Наука, 1971. – 300 с.; Стеблева И.В. Теория жанров литератур Востока. –М.: Наука, 1985. – 263 с.; Фролов Д.В. Классический арабский стих. История и теория аруза. –М.: Наука, 1991. – 247 с.; Жирмунский В.М. Ритмическая синтаксическая параллельность как основа древнетюркского народного эпоса // Вопросы языкознания. 1964, №4. – Б.3-24. Владимирова О.Г. Становление и развитие чувашского силлаботонического стиха. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Чебоксары, 2004. – С. 24. Замалиев А. М. Татарское стихосложение: типологические и национальные особенности. автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Казань, 2011. – 25 с. Шарипов А. Система стихотворных жанров в древнетюркской и тюрко-татарской литературе VIII-XIV вв. (зарождение, становление и функционирование). Автореф.дисс.док.фил.наук. – Казань, 2001. – 84 с.;Туфан Ҳасан. Шеърӣи тузилиш муаммолари // Совет адабиёти. Қозон, 1958. №12. – Б. 101-113.

⁴ Фитрат А. Адабиёт қоидалари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 112 б.; Шайхзода М. Асарлар олти жилдлик. IV жилд. Ғазал мулкнинг султони. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 372 б.; Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent.: Oʻqituvchi, 2005. – 270 б.; Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. –Тошкент: Фан, 1985. – 376 б.; Рустамов Э.Р. Узбекская поэзия в первой половине века. –М.: ИВЛ, 1963. – 371 с.;

Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko'rsatilgan va boshqa bir qator o'zbek hamda jahon adabiyotshunoslarining ilmiy izlanishlari e'tiborga olindi. Tadqiqotimizda mazkur yo'nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, yangi o'zbek she'riyatida vaznlar ritmikasi, mumtoz lirik janrlarning badiiy takomili yaxlit tarzda tekshirilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek adabiyotining dolzarb muammolari" (2020-2025-yy.) mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yangi o'zbek she'riyatida vaznlar ritmikasi, mumtoz lirik janrlarning badiiy takomil xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

adabiyotshunoslikda vazn nazariyasiga oid qarashlar, yangi o'zbek she'riyatida vazn turlari, barmoq va aruzning baravar qo'llanilishi, jahon she'riyatidagi sillabika, sillabo-tonika, metrika bilan uyg'un jihatlarini ochib berish;

А.Хайитметов А. Навоий лирикаси (тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр). –Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 328 б.; А.Хайитметов. Навоий поэтикаси. –Тошкент: Фан, 1983. – 168 б.; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. –Тошкент: Фан, 1983. – 167 б.; Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 134 б.; Носиров О ва бошқалар. Ўзбек классик шеърини жанрлари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 182 б.; Абдугофуров А. Алишер Навоий мусамматлари. //Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. №1. –Б. 27-33.; Орзибеков Р. Ўзбек адабиётида ғазал ва мусаммат. –Тошкент: Фан, 1976. – 120 б.; Orzibekov R. O'zbek lirik she'riyati janrlari. –Toshkent: Fan, 2006. – 350 b.; Ҳожиаҳмедов А. Шеърини санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 150 б.; Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. –Тошкент: Шарқ, 1998. – 240 б.; Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. Манба ва талқинлар. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 340 б.; Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. –Toshkent: Akademnashr, 2020. – 576 b.; Сирожиддинов Ш. Эркин Воҳидов ижодида ғазал / Эркин Воҳидов ижодини маънавий ҳаётимиздаги ўрни ва аҳамияти (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). –Тошкент: Навоий, 2017.; Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърини. –Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015. – 304 б.; Афоқова Н. Жадид шеърини поэтикаси (вазн ва қофия муаммолари). –Тошкент: Фан, 2005. – 140 б.; Адизова И. Увайсий ижодида жанрлар тақомили. –Тошкент: Muharrir, 2011. – 164 б.; Adizova I. Mavjudni mavjlantirgan naziralari. "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. –Toshkent, 2021. – B.191-197.; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. –Toshkent: TA'LIM-MEDIA, 2019. – 184 b.; Yusupova D. Alisher Navoiy taxmislari. <http://www.e-adabiyot.uz/uzbek/mumtoz/1267-maqola.html>. 21.08.19; Қодиров В. Ҳозирги замон ўзбек ғазаллари поэтикасининг айрим хусусиятлари. Филол. фан. номз. дис. –Тошкент, 1993. – 26 б.; Бердимуродова М. Муҳаммад Юсуф Рожий Хоразмий даври. Ҳаёти. Адабий мероси. –Тошкент: Muharrir, 2013. – 152 б.; Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари ва маҳорат масалалари. –Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2017. – 260 б.; Мухитдинова Н. Мирҳасан Саодий ва унинг адабий мероси (шеърини поэтикаси, ғоявий-бадий таҳлил масалалари). Филол.фан.номз. дисс.автореф. – Самарқанд, 2017. – 44 б.; Мухитдинова Н. XVIII-XIX асрлар биринчи ярми ўзбек шеърини салафлар анъаналарининг поэтик тақомили (Муҳаммад Ғозий ва Мирҳасан Саодий ижоди мисолида). Филол.фанлари докт.дисс. –Самарқанд, 2021. – 245 б.; Кобилова З. Бадий ижодда таъсир ва издошлик масалалари (Амирий шеърини мисолида): Филол.фан.б. док. (DSc) дисс.автореф. –Фарғона, 2021. – 77 б.; Холлиева Г. Оғаҳий мусамматлари. Филол.фан.номз. дисс.автореф. –Тошкент, 2000. – 24 б.; Раҳмонова Ш. XX аср иккинчи ярми ўзбек шеърини арузининг поэтик шакл ва мазмун тақомилидаги ўрни. Филол. фан.б. фалс.док. (PhD) дисс. –Тошкент, 2020. – 182 б.; Маҳаммадиева Ю. Ферузнинг бадий маҳорати. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. –Тошкент, 2021. – 132 б.; Рузибоев Т. Таҳмис генезиси, тадрижи, жанр хусусиятлари ва поэтикаси (Алишер Навоий таҳмислари мисолида). Филол. фан.б. фалс.док. (PhD) дисс. автореф. –Наманган, 2022. – 26 б.; To'xtamuratov F. Muhsiniy adabiy merosi: manbalari, matn tarixi va tahriri. Filol.fanlari b.fals.dokt. (PhD) diss.avtoreferati. –Toshkent, 2023. – 57 б.; Amonov Sh. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo'lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. Filol. fan. b. dok. (DSc) diss. –Toshkent, 2023. – 277 b. Oripova G. Mustaqillik davri o'zbek lirikasi: janr xususiyatlari va poetikasi. Filo.fan.dok.(DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2024. – 265 b.; Boltayeva G. O'zbek she'riyatida muxammas janri: genezisi, badiiy takomili. Filol.fan.dokt.(DSc) diss. – Toshkent, 2024. – 265 b.

aruz asoslarining yangilanishi, musammat janrlarida an'ana va vorisiylik, mazmuniy ko'lamdorlik, musallas, murabba, muxammas, musaddas, muashshar yaratishda shoirlar mahoratini yoritish;

yangi g'azallarda ishq va oshiqlik talqini, mavzuning ijtimoiylashuvi, mustazodnavislik va masnaviy yaratishdagi o'ziga xos xususiyatlarni ilmiy dalillash;

yangi o'zbek ruboiynavisligida shakl va mazmun birligi, falsafiy-axloqiy, ijtimoiy mavzularda yozilganligini Charxiy, S.Abdulla, M.Shayxzoda, J.Kamol she'rlari orqali asoslash;

yangi o'zbek she'riyatida tuyuq, qit'a, fard kabi kichik janrlar spetsifikasini Charxiy, Chustiy, Habibiy, G'.G'ulom, Turob To'la, J.Jabborov, Z.Ne'mat singari shoirlar ijodi orqali aniqlashdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida yangi o'zbek she'riyati vakillarining she'rlari tanlangan (Cho'lpon, Chustiy, Habibiy, Charxiy, Oybek, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjon, Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Jamol Kamol, Zikrilla Ne'mat) she'rlari tanlangan. Zarur o'rinlarda xalq lirikasi hamda o'zbek mumtoz she'riyati namunalariga murojaat qilingan.

Tadqiqotning predmetini yangi o'zbek she'riyatida vazn va mumtoz janrlar takomili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, germeneytik, psixologik, analitik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yangi o'zbek she'riyatida mumtoz she'r va uning yetakchi vazni bo'lgan aruzdan foydalanish davom etganligi; g'azal, qasida, fard, qit'a, musammat, masnaviy, ruboiy, tuyuq kabi mumtoz she'riyat janrlarida vazn imkoniyatlari yuzaga chiqqanligi, mumtoz an'analar yangi paydo bo'lgan realistik adabiyot tamoyillari bilan uyg'unlashtirilganligi, zamonaviy aruz lirik mazmun bilan boyitganligi ochib berilgan;

yangi o'zbek she'riyatida mumtoz adabiyotdagi janrlarning uslubidan foydalanish alomatlari kuzatilishi, muayyan asarning shaklan bir janr belgilarini, mazmunan bir janr xususiyatlarini namoyon qilishi, muayyan mumtoz janrga xos jihatlarni barqaror saqlab qolishi va shaklan barmoqlashish xususiyatini namoyon etganligi asoslangan;

yangi o'zbek she'riyatida g'azal, mustazod kabi janrlarning muhim o'rin tutganligi, ularda ishq mavzusining an'anaviy talqinlari, shu bilan birga, ijtimoiy pafosning xususiyat sifatida namoyon bo'lishi, falsafiy, axloqiy-didaktik ruhga yo'g'rilganligi singari jihatlarni ochib berilgan;

yangi o'zbek she'riyatida musammatlar mazmunida ijtimoiylashuvning yetakchi xususiyat kasb etganligi, musaddas va muashshar badiiy strukturasi kechgan transformatsiyalar natijasida oltilik va o'nlik she'r shakllarning yuzaga kelganligi, zamonaviy aruzda yozilgan muxammaslarning mumtoz she'riyatga shakl va mazmun jihatdan izdoshlik qilishi, ularni barmoqda yozish an'anasi vujudga kelganligi dalillangan;

XX asrda ruboiylarning katta qismi hazaj bahrining axram va axrab shajaralarida bitilganligi, falsafiy-axloqiy mazmunning ifodalanishi barobarida ishqiy ruboiylar ham yaratilganligi, ularda Umar Xayyom, Bedil, Navoiy, Bobur

singarilar ijodiga izdoshlik yetakchilik qilishi, janrda barmoqlashish jarayoni kechganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yangi o'zbek g'azallarida maqta' va matla'ning saqlanganligi, mazmuni, badiiy shakli, obrazligiga ko'ra izdoshlik singari an'anaviy xossalari; tabiat, jamiyat, Vatan, komil inson, ma'naviyat, axloq mavzularining chuqur badiiy tahlil etilganligi, g'azal-muvashshax, g'azal-nazira, g'azali musajja', g'azal-qasida, singari sinkretik shakllar yuzaga kelganligi kabi janr strukturasidagi transformatsion jarayonlar, yangilanishlar yoritilgan;

yangi o'zbek she'riyatida tuyuqlar mavjudligi, ularda ishqiy mavzu yetakchilik qilishi barobarida hajviy-yumoristik mazmunning ham ifoda etilganligi, vaznning qat'iyligi – ramali musaddasi mahzuf tarmog'ida bitilganligi, qofiya o'rnida omonim va omonimsifat so'zlarning kelishi, "tuyuq" nomi ostida berilgan ayrim janr namunalarining barmoqda ham yozilishi va bugungi to'rtliklarga muvofiq kelishi Charxiy, Habibiy, G'afur G'ulom, Jumaniyoz Jabborov, Zikrilla Ne'mat she'rlari orqali dalillangan;

Chustiy, Turob To'la, Jumaniyoz Jabborov kabi shoirlarning "qit'a", "fard" nomi ostida berilgan janr namunalarida mumtoz lirikaga xos mazmun, shaklning saqlanganligi barobarida, vazniy saktaliklarga yo'l qo'yilganligi, barmoqqa moslashtirganligi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillarning qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, germeneytik, psixologik, analitik va statistik tahlil usullari vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, yangi o'zbek she'riyatida vazn va mumtoz janrlar takomili yoritilgan nazariy xulosalardan va she'rshunoslik nazariyasi, yangi o'zbek she'riyati yo'nalishida olib borilayotgan ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan "Adabiyotshunoslik asoslari", "Adabiyot nazariyasi", "O'zbek adabiyoti tarixi", "Yangi o'zbek adabiyoti", "Hozirgi adabiy jarayon" fanlaridan darslik, o'quv qo'llanma, majmualar yaratishda; adabiyotshunoslik lug'atlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi o'zbek she'riyatida vazn va mumtoz janrlar takomilini yoritishda erishilgan ilmiy natijalardan:

yangi o'zbek g'azallarida maqta' va matla'ning saqlanganligi, mazmuni, badiiy shakli, obrazligiga ko'ra izdoshlik singari an'anaviy xossalari; tabiat, jamiyat, Vatan, komil inson, ma'naviyat, axloq mavzularining chuqur badiiy tahlil etilganligi, g'azal-muvashshax, g'azal-nazira, g'azali musajja', g'azal-qasida, singari sinkretik shakllar yuzaga kelganligi kabi janr strukturasidagi transformatsion jarayonlar, yangilanishlar yoritilgan; zamonaviy she'riyatda mumtoz adabiyotdagi kabi g'azal, masnaviy, murabba', muxammas, maktub, qasida, tuyuq, ruboiy kabilarning shakli va uslubidan foydalanish alomatlarini

kuzatilishi, muayyan asarning shaklan bir janr belgilarini, mazmunan esa boshqa janr xususiyatlarini namoyon qilishi, muayyan mumtoz janrga xos jihatlarni barqaror saqlab qolish kabilar asoslangan ilmiy xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida bajarilgan AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” (2024-y) mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 10-iyundagi 3723-raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha yangi o‘zbek she‘riyatida yaratilgan mumtoz lirik janrlar haqidagi fikr-qarashlar bilan boyitilgan;

XX asrda ruboiynavislik an‘anasi davom etganligi, ularning katta qismi hazaj bahrining axram va axrab shajaralarida bitilganligi, falsafiy-axloqiy mazmunning ifodalanishi barobarida ishqiy ruboiylar ham yaratilganligi, Umar Xayyom, Bedil, Navoiy, Bobur singarilar ijodiga izdoshlik qilishi bilan birga, janr talablariga javob bermaydigan she‘rlar ham yozilganligi, vazn saktaligi singari jihatlar Charxiy, Sobir Abdulla, Maqsud Shayxzoda, Jamol Kamol, Toshpo‘lat Hamid, Ramz Bobojon, Sadridin Salim Buxoriy she‘rlari orqali ochib berilgan; yangi o‘zbek she‘riyatida tuyuqlar mavjudligi, ularda ishqiy mavzu yetakchilik qilishi barobarida hajviy-yumoristik mazmunning ham ifoda etilganligi, vaznning qat‘iyligi – ramali musaddasi mahzuf tarmog‘ida bitilganligi, qofiya o‘rnida omonim va omonimsifat so‘zlarning kelishi, “tuyuq” nomi ostida berilgan ayrim janr namunalarining barmoqda ham yozilishi va bugungi to‘rtliklarga muvofiq kelishi Charxiy, Habibi, G‘afur G‘ulom, Jumaniyoz Jabborov, Zikrilla Ne‘mat she‘rlari orqali dalillangan ilmiy xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturi doirasidagi AL-662205561 “Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish” (2023-2024 yy.) mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 9-iyundagi 01/4-2344-raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha Alisher Navoiy an‘analarining yangi o‘zbek she‘riyatida izchil davom ettirilishi bilan bog‘liq qarashlar asosida takomillashtirilgan;

yangi o‘zbek she‘riyatida mumtoz she‘r va uning yetakchi vazni bo‘lgan aruzdan foydalanish davom etganligi; g‘azal, qasida, fard, qit‘a, musammat, masnaviy, ruboiy, tuyuq kabi mumtoz she‘riyatning barcha janrlarida vazn imkoniyatlari qo‘llanilganligi, mumtoz an‘analar yangi paydo bo‘lgan realistik adabiyot tamoyillari bilan uyg‘unlashtirilganligi, zamonaviy aruzni lirik mazmun bilan boyitganligi ochib berilgan; yangi o‘zbek she‘riyatida musammatlar mazmunida ijtimoiylashuvning yetakchi xususiyat kasb etganligi, ularda ifodaning soddaligi, she‘riy misralarda poetik san‘atlarning o‘zaro mushtarak, bir-birini to‘ldirib kelishi, an‘anaviy qofiya talablariga mos kelishi, zamonaviy aruzda yozilgan she‘rlar mumtoz she‘riyatga shakl va mazmun jihatdan izdoshlik qilishi, ularni barmoqda yozish an‘anasi vujudga kelganligi yoritilgan fikr-qarashlardan IL-402104474 “Bolalar adabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” nomli amaliy loyihada (2022-2023 yy.) foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 2-iyundagi 01/4-2249-raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha yangi o‘zbek she‘riyatida aruzni qo‘llash bilan bog‘liq qarashlar orqali boyitilgan;

yangi o‘zbek she‘riyatida g‘azal, mustazod kabi janrlarning muhim o‘rin

tutganligi, ularda ishq mavzusining an'anaviy talqinlari, shu bilan birga, ijtimoiy pafosning xususiyat sifatida namoyon bo'lishi, falsafiy, axloqiy-didaktik ruhga yo'g'rilganligi singari jihatlar Sobir Abdulla, Habibiy, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, E.Vohidov, A.Oripov, Jamol Kamol, Mirzo Kenjabek, Toshpo'lat Hamid, Sirojiddin Sayyid kabi shoirlar she'rlari orqali yoritib berilgan. Ayniqsa, mumtoz janrlarga zamonaviy ruhning olib kirilganligi, g'azallarning ko'proq ramal va hazajda, mustazodning hazaji musammani axrabi makfufi maqsur tarzidagi qat'iy vaznda yozilganligi, ularda qasida mazmunining ustuvorlik qilishi ilmiy dalillangan fikr-qarashlardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining "Assalom, Buxoro", "Milliy o'zlikni anglab" ko'rsatuvlarida foydalanilgan va tadqiqotchi bilan bevosita suhbat olib borilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 9-iyundagi 01-09/118-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyadagi asosli fikr-qarashlar teletomoshabinlarning yangi o'zbek she'riyatida an'anaviylashgan mumtoz janrlar, xususan, g'azal va mustazodlarning mazmun-mohiyati, ularda ifoda etilgan fikr-g'oyalar bilan yaqindan tanishishlariga imkon yaratib, adabiy ko'rsatuvlar zahirasi ilmiy jihatdan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 5 ta xalqaro konferensiyada aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 32 ta ilmiy ish nashr etilgan, O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta maqola, jumladan, 12 tasi respublika hamda 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 256 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, xorijiy adabiyotlar sharhi berilgan, o'rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi va amaliyotga joriy etilishi, nazariy va amaliy ahamiyati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Yangi o'zbek she'riyatida vaznlar ritmikasi**" tarzida sarlavhalangan va ikki paragrafdan tarkib topgan. Dastlabki paragrafdan "*Yangi o'zbek she'riyatida vazn turlari*" haqida fikr bildirilgan. She'rshunoslikda vaznlar ritmikasi muhim yo'nalish, ilmi ekanligi ma'lum. Darhaqiqat, Sharq adabiyotshunosligi tarixiga nazar tashlansa, bu nodir manbalarda *vazn* – *mavzun*, *avzon* termini Abu Nasr Forobiy, Rashididdin Vatvot, Muhammad ibn Umar Roduyoniy, Ahmad Taroziy, Alisher Navoiy, Bobur kabi nazariyotchi olimlar tomonidan qo'llanilganligi kuzatiladi. Jumladan, Forobiy vaznni she'rdagi so'z bo'laklari – bo'g'inlarning muayyan tartibda takrorlanishi

tarzida tushuntiradi⁵. Vaznning yana bir muhim spetsifik belgisi sifatida she'r baytlarining har bir bo'lagi – misralari keyingilari bilan teng – hamohang bo'lishi ko'rsatilgan. Olim fikrini davom ettirib, yozadi: "Har bir vaznda ishlatiladigan bayt so'zlarining ma'lum bir tartibi, chegarasi bor"⁶. Bu esa misralardagi bo'g'inlarning miqdori teng kelishini bildirib turadi. Ohang vazn uchun eng muhim xususiyatdir. Bo'laklar – bo'g'inlar sonining tengligi va ularning muayyan tartibi vazn – mavzunni hosil qilishidagi haqidagi ilmiy qarashlar she'r tuzilishi bilan bog'liq nazariyaning ildizlari nihoyatda qadimiyligini ko'rsatadi. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha: "Chanda aruz ilmiga muqobil turadigan she'r vaznlaridan iboratdir"⁷, – deb yozadi. Bu esa aruzga yaqin vazn turi hind adabiyotida mavjudligini va u "chanda" deb nomlanganligini bildiradi. Zokirjon Furqat "avzon" atamasini qo'llaydi⁸. Umuman olganda, she'r o'lchovi bo'lgan "vazn" tushunchasi mumtoz adabiyotshunoslikda "vazn", "mavzun", "vaznli", "avzon" tarzida qo'llanilgan. Shu bilan birga, mumtoz she'riyatda yetakchi vazn aruz bo'lganligi uchun, deyarli vazn haqidagi nazariy qarashlar shu bilan bog'liq holda yuzaga kelgan.

O'zbek she'riyatida hozirga qadar uch xil vazn turi: barmoq, aruz va sarbast (erkin)ning qo'llanilganligi ayonlashadi. U.To'ychiyevning yozishicha, ichki shakl mazmun, tashqi shakl esa uni ifodalash uchun tanlangan vazndir. Tashqi shakl orqali she'rning musiqiyligi, ritmikasi yuzaga chiqadi. Bu vaznda o'zini namoyon etadi⁹. Demak, o'zbek she'r sistemasini olim 5 ga bo'ladi: barmoq, aruz, bo'g'in-urg'u sistemasi, miqdor-urg'u sistemasi, qorishiq sistema. Adabiyotshunosning bunday xulosaga kelishi jahon adabiyotidagi she'riy vaznlar bilan bog'liq. Jahon adabiyotida to'rtta she'r tizimi, ayniqsa, keng tarqalgan. Bular: sillabik (bo'g'inlar miqdoriga ko'ra), metrik (turoq to'xtam (pauza), takt miqdoriga ko'ra), sillabotonik (bo'g'in va ohang); tonik (ohang). Tatar she'riyati klassigi X.Tufan "oltin modellar" deganda asrlar davomida she'r tuzilishi uchun qoidaga aylangan vazn qoidalarini nazarda tutadi¹⁰. **Sillabik** she'r tizimi bo'g'inlar miqdoriga asoslanadi. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalq she'riyati, shuningdek, italyan, polyak, fransuz, ispan, rumin xalqlari she'riyati ham sillabik she'r tizimiga mansubdir. V.M. Jirmunskiyning ta'kidlashicha, sillabika xalq she'riyatiga asoslangan ko'p qatorli ritmik-sintaktik parallelizmdan kelib chiqqan¹¹. Ma'lumki, xalq lirikasi namunalari misralararo bo'g'inlar sonining tengligi va turoqlarning bir tekisda takrorlanishiga asoslangan. Bunda olim shu jihatni nazarda tutgan. Tatar olimi A.Zamaliyev sillabik she'r tizimida ikki darajali tekislik borligini aniqlaydi: bo'g'inlar va turli o'lchamdagi ritmik bo'linmalar¹². **Metrik** she'r tizimi esa bo'g'inlarning uzun-qisqaligiga, unlilar holatiga asoslanadi. Grek, lotin, arab

⁵ Шарк мумтоз поэтикиси Ҳамидулла Болтабоев талкинида– Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008.– Б.165 (Keyingi fikrlar shu kitobdan olinadi va "o'sha manba" tarzida beti ko'rsatiladi).

⁶ O'sha manba.– B.165.

⁷ O'sha manba.– B.172.

⁸ O'sha manba.– B.161.

⁹ Тўйчиев У. Ўзбек шеър системалари. – Т: Фан, 1981. – Б.3.

¹⁰ Туфан Ҳасан. Шеър тизими муаммолари // Совет адабиёти. – Қозон, 1958, №12. – Б. 101-113.

¹¹ Жирмунский В.М. Ритмическая синтаксическая параллельность как основа древнетюркского народного эпоса // Вопросы языкознания. 1964, №4. – Б.3-24

¹² Замалиев А.М. Татарское стихосложение: типологические и национальные особенности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Казань, 2011. – С.17.

she'riyati shunday xususiyatga ega. Mazkur vazn turi Sharq adabiyotidagi aruz qonun-qoidalariga ko'proq muvofiq tushadi. O.G.Vladimirovaning yozishicha: "She'rshunoslikning eng qadimiy an'analarga ega bo'lgan sohalaridan biri metrika bo'lib, u she'riy nutqning umumiy fonetik-intonatsion qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Metrika she'r va nasrni qiyoslaydi, ularning o'ziga xosligini aniqlash maqsadida, asosiy va qo'shimcha fonetik-intonatsion konstantalar vazifasini bajaradigan nutq elementlarini belgilaydi"¹³. Metrika bo'g'inlarning qisqachoz'izlikka asoslanishi nuqtai nazaridan aruzga uyg'undir. **Sillabo-tonik** she'r tizimi, urg'uli, urg'usiz bo'g'inlarning ma'lum tartibda kelishiga asoslanadi. O.Vladimirova simmetrik strofalar¹⁴ haqida gapiradiki, bu o'zbek she'riyatidagi barmoq vazni, undagi simmetriyaga mos keladi. U.To'ychiyev qarashlari ham buni tasdiqlaydi: "Bo'g'in-urg'u sistemasi mustaqil she'r sistemasi, chunki uning xuddi barmoq va aruz singari o'z ritmik qonunlari va elementlari bor. Sillabik-tonik sistemaning chuvash, boshqird va boshqa ayrim turkiy tilli xalqlar poeziyasida uzoq yillardan buyon o'ziga xos tarzda ishlatilib kelinayotganligi ham bo'g'in-urg'u sistemasining turkiy tillardan biri bo'lgan o'zbek tilida qutlug' yo'lni bosib o'tishga shubha tug'dirmaydi"¹⁵. Demak, bo'g'in-urg'u sistemasi boshqird, chuvash, tatar kabi turkiy xalqlar qatori o'zbek she'riyatida ham uzoq asrlik tarixga egaligi va uning barmoq vazniga muvofiq kelishi ayonlashadi. **Tonik** she'r tizimi misralarda urg'usiz bo'g'in qancha bo'lishidan qat'iy nazar, ritm hosil bo'lishi, urg'ularning bir maromda kelishiga asoslanadi. Bu keyingi ikki vazn xilida ham o'zbek she'riyatida mavjud vaznlarga xos qaysidir belgilar kuzatiladi. Deylik, sillabo-tonikka xos tartib aruzda namoyon bo'ladi. Ya'ni urg'uli, urg'usiz bo'g'inlarga e'tibor qaratish aruzni sifatga asoslanishini ko'rsatadi. Yoki tonik she'r tizimi yangi o'zbek she'riyatining ibtidosidan qo'llana boshlagan, keyinchalik ommalashgan sərbast (erkin) vaznga mos tushadi. Chunki bu vaznning spеsifikasida bo'g'inlar sonidan qat'iy nazar ritm hosil qilish – ohangdorlik bosh xususiyat sanaladi.

O'zbek she'riyatida qo'llanilgan va hozirgacha faol bo'lgan vazn xillari quyidagilar: **1. Barmoq vazni.** Yangi o'zbek she'riyati hajmi va mavzusi singari janrlar, vazn, shakllari jihatidan ham rang-baranglik kasb etdi. Ushbu vaznning 7, 9, 11 hijoli shakllarida she'rlar ko'proq yozilganligini kuzatish mumkin. Bular orasida 2, 4, 6, 8, 10 bandlilarida sеrmahsulroq ijod qilindi. Ammo ba'zi she'rlarni mutolaa qilish orqali barmoq vaznining shakliy-badiiy xususiyatlari o'zgarganligi kuzatiladi. Bo'g'in, hijo, turog'i, qofiyalanishi aniq, ammo misralari zinapoya shaklida joylashtirilgan she'rlar; bo'g'ini, turog'i aniq-u qofiyalanishida notekislik aks etgan she'rlar; qofiyasi anig'-u bo'g'inlar soni yoki turoqlar tartibi notekis joylashtirilgan she'rlar bugungi she'riyatimizning o'ziga xos xususiyatlarini aks etiradi. Tatar olimi A.Zamaliyevning yozishicha: "Tatar metrikasi evolyutsiyasi "barmoq" bilan bog'liq bo'lib, u qadimgi turkiy asarlar ijodiyoti namunalaridan iboratdir. Bu tarixiy manbalar sifatida qadimgi uyg'ur she'riyati (VIII-X asrlar), Ahmad Yassaviyning hikmatlari (XI-XII asrlar), M.Qoshg'ariyning "Devon"idagi

¹³Владимирова О.Г. Становление и развитие чувашского силлабо-тонического стиха. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Чебоксары, 2004. – С. 10.

¹⁴ O'sha manba. – B. 18.

¹⁵ Тўйчиев У. Ўзбек шеър системалари. – Т.: Фан, 1981. – Б. 48.

she'riy namunalar (XI asr), Qul Alining "Qissai Yusuf" dostoni (XIII asr), muallifi noma'lum bo'lgan "Qissai Auk" (XV-XVI asrlar) hamda diniy madhiyalar va boshqa keyingi davr asarlarini keltirish mumkin"¹⁶. Binobarin, olim tatar metrikasini o'zbek she'riyatidagi barmoq vazni bilan bog'laydi. Fitrat bo'g'inlar soni misralar kesimida sanalganda, muvofiq – teng kelsa, barmoq bo'ladi¹⁷, deydi. Ma'lumki, adabiyotga yangi havolarni olib kirishga chog'langan Abdulhamid Cho'lpon: "Bir xil, bir xil, bir xil... Ko'ngil endi boshqa narsa – yangilik istaydir", – deb yozadi¹⁸. Darhaqiqat, shoir shu so'ziga amal qilgan holda, mumtoz she'riyat an'analariidan ham voz kechmadi, ayni choqda o'zbek she'riyatida tobora faol qo'llanilayotgan barmoq va erkin vaznni ham qo'lladi.

Adabiyotshunos D.Yusupova: "Aruz muomalaga kirgan ilk davrlarda yozilgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari "Shohnoma" vaznida, ya'ni muta'qorib bahrda yozilgan. Yusuf Xos Hojibning aynan shu o'lchovni tanlashiga sabablardan biri sifatida muta'qorib bahrining turkiy xalqlar she'riy tizimi – barmoqning eng faol shakllaridan bo'lgan o'n bir bo'g'inli vazniga juda uyg'un ekanligini keltirish mumkin. Adib Ahmadning "Hibat ul-haqoyiq" asarida ham ushbu o'lchov to'rtliklar shaklida ifoda etilgan"¹⁹, – deb yozadi. Olima aruzning muta'qorib bahrini barmoqning 11 bo'g'inli faol shakli bilan bog'laydi. Bu esa barmoqning aruzning yuzaga kelishida o'ziga xos ko'pri bo'lganligini ko'rsatadi.

2. Aruz vazni. Aruz shoirona did, iste'dod talab etadi. A.Zamaliyevning yozishicha: "XI-XII asrlarda fors she'riyati ta'sirida turklarning ayrim mintaqalarida aruzning shakllanishi turk xalqlarining rivojlanish bosqichiga kirishishi va turk tilining arab, fors tillaridan keyin Islom dunyosi uchinchi tiliga aylanishi bilan bog'liq edi. Oltin O'rda davlati davrida turk tili davlat tiliga aylanib, qandaydir ma'noda etniklararo muloqot tiliga aylanayotgan paytda, aruz Volga bo'yidagi yerlarga kirib borgan va bunday shoirlarning asarlari, masalan, Qutb, Xorazmiy, Hisom Kotib, Sayfi Saroyi kabi ijodkorlarning asarlari ana shunday she'riyat o'lchovlarida yaratilgan"²⁰. Demak, turkiy xalqlar adabiyotida aruz hamma davrlarda ham o'z mustahkam o'rniga ega bo'lib kelgan. Fitrat aruz vaznini "boy va muzikali" vazn ekanligini ta'kidlab, saksonga yaqin vaznlarni to'plaganini, bu aruz vaznlarining hammasi emasligini ma'lum qiladi²¹.

Darhaqiqat, u aruzni musiqali vazn deganda, undagi hijolar miqdorining tengligi asosida yuzga keladigan ohangni, boy vazn deganda esa, arab, fors-tojik, turkiy xalqlar adabiyotida keng tarqalganligini, yetakchi mavqe hosil qilganligini nazarda tutadi. Qolaversa, olim aruz vaznining saksonga yaqin tarmog'ini aniqlagan. Shulardan yangi o'zbek she'riyatiga 10 yaqini qo'llanilganligi kuzatiladi. Binobarin, Cho'lpon, S.Abdulla, Habibiy, Charxiy, Chustiy, H.Olimjon, E.Vohidov, A.Oripov, J.Kamol, S.Sayyid, Z.Ne'mat kabi shoirlarning mumtoz janrlarda yozgan she'rlari bu jihatdan ahamiyatli. Bu she'rlarning yana bir muhim

¹⁶ Замалиев А.М. Татарское стихосложение: типологические и национальные особенности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Казань, 2011. – С. 19.

¹⁷ O'sha manba. – B.201.

¹⁸ Чўлпон. Адабиёт надир? – Т.: Чўлпон, 1994. – Б.57.

¹⁹ Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Ta'lim-media, 2019. – Б.7.

²⁰ Замалиев А.М. Татарское стихосложение: типологические и национальные особенности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Казань, 2011. – С. 20-21.

²¹ Фитрат. Аруз ҳақида. Танланган асарлар. 5-жилд. (Нашрга тайёрл. Ҳ.Болтабоев.) – Т.: Маънавият, 2010. – Б. 229.

jihatini – ular mumtoz janr qoidalariga tushadi, biroq vazn jihatidan barmoqqa moslanganlari ham bor. Bu esa barmoqning hamma davrlarda bo‘lgani kabi, yangi she‘riyatda ham aruzga ta‘sir etganligini asoslab turadi.

Yangi o‘zbek she‘riyatdagi aruzda yozilgan asarlar, bir tomondan, an‘anaviy aruz, g‘azal bugungi kunda yashashga, insondagi azaliy bebaho tuyg‘u ishq tug‘yonini, romantik kayfiyatni ifoda etishga qodir ekanligini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan, an‘anaviy shaklning hozirgi rivojida ayrim qiyinchilik, ichki ziddiyatlarni ham oshkor etadi. U.To‘ychiyev yozadi: “Miqdor urg‘u sistemasi, birinchidan, bog‘inlarning cho‘ziqlik va qisqalik darajasi, ikkinchidan urg‘u va so‘zlar sonining misralarda mutanosib bo‘lishiga qaraydi. Agar bog‘in-urg‘u sistemasi barmoq sistemasi rus sillabo-tonik sistemasi ta‘sirida unib chiqqan bo‘lsa miqdor-urg‘u sistemasi aruzdan rus sillabi tonik sistemasidan kelib chiqqan”²². Mazkur qarash jahon she‘riyatidagi vaznlar o‘zbek she‘riyatida qadimdan boshlab faol qo‘llanib kelyotgan aruz va barmoq bilan genetik yaqinligini ko‘rsatadi. Ya‘ni buni **bo‘g‘in-urg‘u-barmoq, miqdor-urg‘u-aruz** tarzida ifodalash mumkin bo‘ladi.

Aruz vaznida zamonamiz she‘riyatining yetakchi vakillaridan tortib yosh qalamkashlargacha o‘zlarini sinab ko‘rdilar. Ulardan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Sirojiddin Sayyid, Halima Xudoyberdiyeva kabi bir qancha ijodkorlar nomlarini sanab ko‘rsatish mumkin. Erkin Vohidovning “Ishq savdosi”, “She‘r dunyosi”, “Umr daryosi”, “Ko‘ngil nidosi” devoni, Jamol Kamolning “Yana ko‘nglimda oy” nomli aruziy to‘plami, A.Oripov, S.Sayyid, M.Kenjabek, M.Olimov kabilar mumtoz she‘riyat an‘analarini izchil davom ettirdilar. Bugungi kunda aruzning turli vazn va bahrlarida yozilgan g‘azal, mustazod, musammat, ruboiy, qit‘a, masnaviy, marsiya kabi janrlari namunalarini uchratish mumkin.

3. Erkin vazn. Erkin vazn o‘zbek she‘riyatiga XX asrning 20-yillarida rus-Yevropa she‘riyatidan kirib keldi. O‘sha paytlarda erkin vaznni boshlab bergan rus shoiri V.V.Mayakovskiy edi. Shuningdek, erkin vaznning paydo bo‘lishida turk adabiyoti, ayniqsa, Nozim Hikmatning ham hissasi bor. Erkin vazn o‘zbek adabiyotshunosligida sərbast deb ham yuritiladi. Yevropada xuddi shu ma‘noda “verlibr” termini ham ishlatiladi. Demak, erkin vazn, sərbast, verlibr atamaları deyarli sinonim sifatida ishlatiladi. Bu haqda adabiyotshunos D.Yusupova yozadi: “Har bir millat adabiyotidagi she‘riy vaznlar o‘sha xalq tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shu ma‘noda o‘zbek tilining ifoda va ohang imkoniyatlariga eng ko‘p mos keluvchi she‘riy tizim milliy vaznimiz hisoblangan *barmoq* vaznidir. Barmoq vazni misralardagi bo‘g‘inlar sonining bir xil miqdorda takrorlanishi va guruhlanishiga asoslanadi. Bu tizimda bo‘g‘inlarning sifati, ochiq yoki yopiqligi muhim emas. O‘zbek she‘riyatiga XX asrda kirib kelgan erkin vazn esa bo‘g‘inlar miqdorining turli-tumanligi, qofiyalanish va bandlarda erkinlikka asoslanganligi bilan ajralib turadi”²³. Olima erkin vaznga xos xususiyatlarni: bo‘g‘inlar miqdorining turli-tumanligi, qofiyalanish va bandlarda erkinlikka asoslanish tarzida ko‘rsatadi. Binobarin, erkin vaznda misralardagi hijolarning qisqa-cho‘ziqligi ham, ularni miqdori ham hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Bu

²² Тўйчиев У. Ўзбек шеър системалари. – Т: Фан, 1981. – Б. 48.

²³ Yusupova D. Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika asoslari. O‘quv qo‘llanma – T.: TA‘LIM-MEDIA, 2019. – B.5.

vazndagi she'r misralarining hijolari istalgan vaqtda teng bo'lishi va istalgan vaqtda teng bo'lmasligi mumkin. G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Usmon Nosir, Mirtemir, Rauf Parfi singari ko'plab o'zbek shoirlari ham bu vaznda qator e'tiborli asarlar ijod qanishgan. Erkin she'r tizimi – alohida mustaqil adabiy hodisa. Chunki u aruz va barmoq she'r tizimidan jiddiy farq qiladi. Mazkur she'r tizimidagi o'ziga xoslik, avvalo, unda misralar, qofiyalar tartibidagi har qanday o'zgarish ma'no talabiga, his-hayajon darajasiga bog'liqligidir.

Demak, barmoq vazni bilan shakllangan turkiy she'riyat o'z vazniga solish uchun yana shu vazndan foydalanildi. Shu nuqtayi nazardan yangi o'zbek she'riyatida mumtoz she'r va uning yetakchi vazni bo'lgan aruzdan foydalanish ikki xil tarzda kechdi: **1. Aruzda davom etgan janrlar.** Mumtoz she'riyat janrlari aynan aruzning qaysidir vaznida yozildi. **2. Barmoqda yozilgan (barmoqlashgan) mumtoz janrlar.** Ayrim she'rlar mumtoz she'riyatda yoziladigan g'azal, ruboiy, tuyuq, hatto nazira tarzida bog'langan muxammaslap barmoqqa to'g'ri keladi.

Bobning ikkinchi paragrafi "*Aruz asoslarining yangilanishi*" tarzida sarlavhalangan. Yangi o'zbek she'riyatidagi aruz vazni bilan bog'liq yuzaga kelgan o'zgarishlarni ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1. Mumtoz aruzshunoslik nuqtayi nazaridan xato bo'lsa-da, hozirgi zamon tilshunosligi qoidalariga, o'zbek tilining holatiga va boshqa qoidalariga ko'ra oqlash mumkin bo'lgan o'zgarishlar. 2. Mumtoz aruzshunoslik nuqtayi nazaridan xato, shuningdek, hozirgi kunda ham oqlash mumkin bo'lmagan nuqsonlar. Birinchi guruhga quyidagi o'zgarishlarni kiritish mumkin: 1. Misra ichida bir cho'ziq va bir qisqa/-V/, misra so'ngida o'ta cho'ziq / – ~ / hisoblangan "shiq", "dard", "sarv" kabi so'zlar bir cho'ziq hijo sifatida olinmoqda. Barcha adabiyotlarda bunday so'zlar bir cho'ziq va bir qisqa hijoga o'tishi ta'kidlanadi. Masalan, Mirzaahmad Olimovning shunday ruboiysi bor: *Bo'lsak-da yomon, bizni suyar ham bordir, //Dard bormi, mehr bormi – tuyar ham bordir. //Har kas kabi biz orqali o'z jonigamas, //Mard kas kabi bizlarga kuyar ham bordir.* Bu baytlardagi "dard", "mehr", "mard" so'zlari bir cho'ziq hijo sifatida qo'llanilgan. Bunday so'zlar o'zbek fonetikasiga ko'ra va shu bilan bog'liq barmoq she'riyatida bir bo'g'in deb qaraladi. Navbatdagi o'zgarish davr, qadr, sabr, umr tipidagi so'zlar bilan bog'liq. Aruz ilmiga ko'ra bunday so'zlar bir cho'ziq va bir qisqa hijo sifatida keladi. Hozirgi g'azallarda esa ular teskari paradigmada, ya'ni bir qisqa va bir cho'ziq ko'rinishda / Y – / berilmoqda. 2. Hozirgi kunda baytlardan iborat qofiyalanish tartibi va romantik uslubi bilan shaklan g'azal, lekin aruz vazniga tushmaydigan she'rlar uchrab turadi. Yusuf Shomansurning "Barmoqdagi g'azallar", Anvar Obidjonning "Gulmat" turkumidagi g'azallari shunday she'rlar sirasiga kiradi. Bu shakldagi g'azallar adabiyotimizda ko'rinmagan edi. Ularni o'zbek she'riyatida yangi hodisa deb qarash mumkin.

Ikkinchi guruh sirasiga kiruvchi o'zgarishlar hozirgi aruz vaznidagi ayrim nuqsonlardan iborat: 1. Ba'zan yosh shoirlar ayrim hollarda unlilar sifatini aniqlashda xatolikka yo'l qo'ymoqdalar. M.Abdulhakimovning "Havasi" radifli g'azali ramali musammani mahbuni mahzuf bahrida. G'azalning to'rtinchi – *Qurigay qancha tiniq, pok esa-da jilg'a agar//Uning har qatrasida bo'lmasa ummon havasi* baytida birinchi misra boshidagi "qurigay" so'zining birinchi bo'g'inini vazn talabi bilan shartli ravishda cho'ziq hijo deb olish mumkin.

Shuningdek, ikkinchi misradagi “uning” soʻzini ham uni deb oʻqib ketish mumkin. Lekin shu soʻzdagi “u” choʻziq boʻlolmaydi. Bunda vazn buzilgan. 2. Maʼlumki, sheʼriyatda vazn talabi bilan ayrim soʻzlarni oʻzgartirib qoʻllash mumkin. Masalan, ikki soʻzini iki, bilanni birla, gulistonni gulsiton, issiq soʻzini isiq deb qoʻllangan. Hozir baʼzi oʻrinli hollarda mazkur istisno-imtiyozdan foydalanilmayotir. Masalan, Erkin Vohidovning quyidagi misralarini bunga misol qilib koʻrsatish mumkin: *Sevgi nazmiga jahonning gulistoni yetmagay*. Agar shoir bu misralarida “guliston” soʻzini “gulsiton” shaklida berishi lozim edi va shunda vazn saktaligi bartaraf etilardi.

Shunday qilib, shoirlarni yangicha aruzga munosabatiga koʻra shartli ravishda 3 katta avlodga boʻlish mumkin: “Birinchisi – asosan, XX asrda aruzda ijod qilgan va bunda mumtoz sheʼriyatimizning deyarli barcha anʼanalarini davom ettirgan Habibiy, Charxiy, Chustiy, qisman Sobir Abdulla kabi ijodkorlar guruhi. Ikkinchisi – zarurat boʻldi deguncha, bemalol aruzga murojaat etgan va mumtoz anʼanalarni yangi paydo boʻlgan realistik adabiyot tamoyillari bilan uygʻunlashtirgan Hamza (“Devoni Nihoniy”dan keyin), Choʻlpon, Usmon Nosir, Gʻafur Gʻulom, Hamid Olimjon, Oybek singari ulugʻ shoirlar guruhi. Uchinchisi – aruzni qaytadan tiriltirgan, unga oʻzining nozik intim tuygʻularini ham ahyon-ahyonda emas, istalgan paytda, deyarli toʻligʻicha singdira olgan va zamonaviy aruzni haqiqiy maʼnodagi lirik mazmun bilan ham boyitgan Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Jumaniyoz Jabborov, Muhammad Ali, Shavkat Rahmon, Ikrom Otamurod, Eshqobil Shukur, Asqar Mahkam, Mirzo Kenjabek, Sirojiddin Sayyid, Mirzaahmad Olimov, Zikrilla Neʼmat kabi ijodkorlar guruhi”.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Yangi oʻzbek sheʼriyatida gʻazal, mustazodlarning poetik takomili**” tarzida sarlavhalangan. Bobning dastlabki paragrafida “*Yangi oʻzbek sheʼriyatida gʻazal turlari va ularda ishq talqini*” yoritilgan. Yangi oʻzbek sheʼriyatida anʼanaviy gʻazalnavislik tadrijiy ravishda davom etdi. Choʻlpon, Gʻ.Gʻulom, H.Olimjon, E.Vohidov, J.Kamol, A.Oripov, S.Sayyid, S.Vohidov kabilar ijodida gʻazallar alohida oʻringa ega. Ularga mumtoz adabiyot nuqtayi nazaridan yondashilsa, mazmuniga koʻra mustaqil baytlardan iborat, yakpora gʻazallar ajratilgan. Ayni choqda yakpora gʻazallar voqeband va musalsalga boʻlinadi²⁴. Qolaversa, mumtoz sheʼriyatda gʻazali-musajja, nazira-gʻazal, gʻazali muvashshah kabi janr koʻrinishlar yangi adabiyotda ham yozilgan.

1. Mustaqil baytlardan iborat gʻazallar. Choʻlponning “Qalandar ishq” gʻazali ishqiy mavzu va aruzning hazaj bahrida bitilgan: *Muhabbatning saroyi keng ekan, yoʻlni yoʻqotdim-ku, //Asrlik tosh yangligʻ bu xatarli yoʻlda qotdim-ku. //Karashma dengizin koʻrdim, na nozlik toʻlqini bordir, //Halokat boʻlgʻusin bilmay, qulochni katta otdim-ku*²⁵. Dastlabki bayt lirik qahramon – oshiqning iztirobli kechinmalari tasviri bilan boshlanadi. “Muhabbatning saroyi” metaforasi bir qarashda anʼanaviydek koʻrinsa-da, aslida yangi. Koʻchma maʼnoda u ishq makon tutgan qalbni ifoda etadi. Oshiq shu saroyga kirmoqchi, lekin yoʻlda asrlik tosh yangligʻ toʻxtab qoladi, gurchi bu saroy keng boʻlsa-da, kirolmaydi. Muhabbat yoʻlini xatarli hisoblaydi. Darhaqiqat, bu yoʻlning ancha mushkulotlari borligi

²⁴ Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик, 2-жилд. Лирика. –Тошкент: Фан, 1992. –Б. 193-196.

²⁵ Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. I жилд. Шеърлар. Драмалар. Таржима. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – Б. 6.

ayon. O‘zini asrlilik toshga mengzayapti: bu tashbeh ham ohorli. Keyingi baytda ham metaforalar noan‘anaviy: “karashma dengizi”. Ma‘lumki, “karashma” forscha so‘z bo‘lib, nozik ko‘z qarashi, jilva, noz²⁶ degan ma‘noni bildiradi. Ya‘ni ma‘shuqaning nazokatli qarashi, noz-jilvasi lirik qahramon – oshiqni o‘ziga rom etgan. “Nozli to‘lqin” ham metafora. Oshiq sevgilining noz-karashma dengiziga sho‘ng‘imoqchi, lekin uning to‘lqini g‘arq qiladigan darajada kuchli. *Qalandardek yurib dunyoni kezdim, topmayin yorni, //Yana kulbamga qayg‘ular, alamlar birla qaytdim-ku. //Muhabbat osmonida go‘zal Cho‘lpon edim, do‘stlar, //Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.* Lirik qahramon – oshiq qalandarga qiyoslangan. “Qalandar” so‘zi “dunyoning hamma bordi-keldilaridan voz kechib, daydib yuruvchi darvesh”²⁷ ma‘nosini bildiradi. G‘azal mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun-tarmog‘ida – hazaji musammani solim shaklida yozilgan.

2. Yakpora g‘azallar. Chustiy g‘azal janrini rivojlantirgan shoir hisoblanadi. “Aqli raso bo‘lsin” g‘azali bu jihatdan e‘tiborni tortadi: *Sevishgan har yigit-qiz, avvalo, aqli raso bo‘lsin, //Kuyov birlan kelinchakda vafo bo‘lsin, hayo bo‘lsin.* Bu g‘azal xalqimiz orasida ancha mashhur, hofizlar tilida qo‘shiqqa aylangan. Olqish-bag‘ishlov mazmunida bitilgan bu she‘rda hayotga mustaqil qadam tashlayotgan yigit va qizga bag‘ishlangan, ezgu tilaklar bildirilgan va hayotiy mazmun kasb etgan. G‘afur G‘ulom ijodida ham g‘azalning yaxshi namunalari uchraydi: *Dildagi sevgu jilosini jamolidan so‘rang, //Uydagi har ma‘rifat nurin kamolidan so‘rang. //Bog‘imizda yuz tuman rang oftob ko‘zgusidek, //Bu chiroy mazmunini ruxsori olidan so‘rang. //Jambul-u rayhon hidi ko‘ngilni ko‘klam qilganin, //Bir tutam qiz sochidek tongning shamolidan so‘rang, //O‘zaro eldin nihon hech sirimiz yo‘q qirq bahor, //Qo‘sh vafo sirrin G‘afur mirzo maqolidan so‘rang*²⁸. Ishqiy mavzudagi bu g‘azal yetti baytdan iborat bo‘lib, sharqona ruhda bitilgan. She‘r *ramali musammani mahzuf* (maqsur), afoyili - *foilotun, foilotun, foilotun, foilon* (foilon), taqte‘si - v - - / - v - - / - v - - / - v - (- v ~) ko‘rinishda yozilgan.

Paragrafda Sobir Abdulla, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov, A.Oripov, J.Kamol, S.Sayyid, M.Kenjabek kabi shoirlarning g‘azallari mustaqil baytlardan iborat va yakpora turiga ko‘ra o‘rganilgan. Shu bilan birga, *muvasshah-g‘azal, nazira-g‘azal, musajja‘-g‘azal* kabilar tahlil etilgan. Jamol Kamolning *muvasshah-g‘azali* rafiqasi Vohida ayaga bag‘ishlangan. Bu she‘rning o‘ziga xosligi shundaki, unda g‘azal janri tabiatidan kelib chiqib, ismdagi harflar baytda o‘z ifodasini topgan. Chunki barmoq vaznida yozilgan *muvasshahlarda* har bir misra bir harf bilan boshlanadi. *Vasliga yetgan ko‘ngilning //Ishqi bor, armoni yo‘q//Vasliga etmasa ul, //Dardi bor, darmoni yo‘q*²⁹. Dastlabki bayt matla‘ bo‘lib, unda shoirning Vohida ayaga muhabbati olovlanib turadi. «*Vasliga yetgan ko‘ngil» bunda oshiqdir. Shu bois uning qalbida ishq bor, armon yo‘q. //Oh urib vaslingga yetdim bir kuni, ey sohira, //Orzuga bildiradi va bu so‘z ma‘shuqa timsolini ifoda etadi. Lirik qahramon oshiq orzusiga yetgani, ma‘shuqasiga erishgani uchun shukrona keltiryapti. //Har qachon boqsam yuzingga, yuzlanur hayrat menga.*

²⁶ Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 305.

²⁷ O‘sha manba. – B. 729.

²⁸ Ғафур Ғулом. Мукаммал асарлар тўплами. Учинчи том. Шеърлар. – Т.: Фан, 1984. – Б. 318.

²⁹ Жамол Камол. Сайланма. Олти жилдлик. II жилд. Ёнаётган дала. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. –Б. 99. (Keyingi misollar shu kitobdan olinadi va “o‘sha manba” tarzida beti ko‘rsatiladi)

//*Husn elining sen kabi, bir xurshidi toboni yo‘q*³⁰. Yuqoridagi muvashshahdagi baytlarning bosh harflari ketma-ket qo‘yilsa, “Vohida” ismi kelib chiqadi. Jamol Kamolning o‘zbek dehqoni obrazi yaratilgan “Paxtakorim” g‘azali deb boshlanuvchi g‘azali o‘zbek mumtoz shoiri Munisning “Qaysi” deb boshlanuvchi g‘azaliga **nazira** sifatida bitilgan: *Qaysi gulning men kibi bir andalibi zori bor? //Qaysi bulbulning seningdek bir gul bexori bor?*³¹ Jamol Kamolda: *Qaysi xurshid shu tiniq osmonda oftobing kabi? //Qaysi shiddat shu buyuk maydonda javloningcha bor?*³² Binobarin, tajohuli orif bilan ziynatlangan yuqoridagi baytda mehnatkash, jafokash o‘zbek dehqoni siymosi ko‘z oldimizga keladi. “Shu buyuk maydon” paxtazorda javlon urgan bobo dehqon ulug‘lanadi: *Qaysi sharbat paykalingda qatra shabnamdek laziz? //Qaysi shabnam manglayingda reza marjoningcha bor?*³³ Jamol Kamol yuqoridagi baytda mehnat tufayli dehqonning peshonasidagi reza-reza ter tonggi shabnamdan ham afzaldir. Chunki unda mashaqqat, zahmat namoyon: *Qaysi to‘lqin sen dalangga boshlagan daryodayin? //Qaysi daryo talpinishda tinmagan joningcha bor?*³⁴ O‘zbek dehqoni tunda dalasini sug‘oradi. Ana shu suvni shoir to‘lqinga o‘xshatadi. Uning tinib-tinchimasligi oldida daryo talpinishi ham hech narsa emas

Bobning ikkinchi paragrafida “*Yangi g‘azalnavislikda falsafiy-axloqiy mazmun va mavzuning ijtimoiylashuvi*” yoritilgan. Yangi o‘zbek she‘riyatida yaratilgan g‘azallarda mavzuning ijtimoiylashuvi kuzatiladi. Bunga sabab – adabiyotning real hayotga yaqinlashganligi, badiiy asarlarga dunyoviy qahramonlarning kirib kelganligi bilan bog‘liq. Qolaversa, “yangi she‘riyat” deb atalayotgan davr o‘tgan asr boshlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiradi. Shu nuqtayi nazardan mumtoz an‘ana sifatida davom etgan g‘azalchilik mazmuniga ham shunday o‘zgarishlar, transformatsion jarayonlar kechdi. Natijada Cho‘lpon, Charxiy, Habibiy, Chustiy, E.Vohidov, J.Kamol, A.Oripov, S.Sayyid kabi shoirlar ijodida ishqiy g‘azallardan tashqari istiqlol, erk, vatan mavzusidagi she‘rlar yaratildi. Charxiyning “Yodlar zamon, Muqimiy” g‘azali mahzun ruh bilan sug‘orilgan. Unda ma‘rifatparvarlik adabiyotining yorqin namoyandasi Muqimiyning adabiyotimiz oldidagi xizmatlari ko‘rsatilgan: *O-zod Va-tan/da no-ming// yodlar za-mon, /Mu-qu-miy, //Til-ga o-lib //ka-lo-ming/ yod lar za-mon, // Mu-qu-miy...*³⁵. G‘azal mustaf‘ilun/ fauvlun/ mustaf‘ilun/ fauvlun bo‘lib, rajazi musammani muxalla’ vaznida bitilgan. Shoir “ozod Vatan” der ekan, sobiq tuzumni nazarda tutadi. Shu davr ijodkorlari qatori Charxiy ham undan haqiqiy ozodlikni, erkin hayotni kutgan. Xotira xarakteridagi satrlarda shoir Muqimiy yashagan zamonga nazar tashlaydi. Muqimiy o‘z zamonida xalqni ezgan zulmkorlarni tanqid qildi, ular haqida satiralar yozdi. Shoir shunga ishora qilib, Muqimiy tanqidining nayzasi (metafora) zolimlarning ahvolini tang qildi, deydi. Shuning uchun xalq uni “otashin satira”lari – o‘tkir hajvlari bilan

³⁰O‘sha manba. –B. 99.

³¹<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/munis-gazallar.html>.

³² Жамол Камол. Сайланма. Олти жылдик. I жилд. Аср билан видолашув. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. –Б. 306. (Кейинги мисоллар шу китобдан олинади ва “ўша манба” тарзида бети кўрсатилади)

³³O‘sha manba.–B. 306.

³⁴O‘sha manba –B. 306.

³⁵ Чархий. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, санъат нашриёти, 1972. – Б. 22.

yodga oladi. Erkin Vohidov gʻazaliyotida tabiat, jamiyat, Vatan, komil inson, maʼnaviyat, axloq mavzulari chuqur badiiy tahlil etiladi. Shoirning “Shirin” radifli gʻazalida ham sohibi davronlik nashʼasini surib, doʻstu yorlar davrasi lazzatidan bahramand boʻlib yashayotgan zamondoshimizning goʻzal tuygʻulari bosh pafos sifatida yangraydi: *Dilkusho doʻst, dilrabo yor// Birla oʻtgan dam shirin. //Doʻstu yor birlan hayotu// Siynayi olam shirin*³⁶. Mazkur satrlar Boburning “*Yoz fasli, yor vasli, doʻstlarning suhbat*” deb boshlanuvchi gʻazalini yodga soladi. Demak, gʻazalda anʼanaviylik bagʻrida zamonaviy insonning orzulari namoyon boʻlmoqda.

Bobning keyingi paragrafi “*Mustazodnavislikda anʼana va yangilanishlar*” tarzida sarlavhalangan. Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da yozadi: “Va yana bu xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt bogʻlab bitib, aning misrasidin soʻngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nagʻamotigʻa rost keltururlar ermish va ani “mustazod” derlar ermish”³⁷. Mutafakkir shoir mustazodni “surud” – qoʻshiq deb ataydi va uning qatʼiy vaznda – hazaji musammani axrabi makfufi mahzufda yozilishini va asosiy misraga qoʻshimcha qism qoʻshilishini – har bir misradan keyin xuddi shu bahrda ikkita rukn qoʻshilishini, qoʻshiq ohangiga muvofiq boʻlishini aytadi. A.Fitratning fikrlari ham buni tasdiqlaydi³⁸. E. Bertels: “Mustazod nisbatan kamroq uchraydigan formalardandir. Bunday sheʼrlar quyidagicha tuziladi: oʻz shakliga ega boʻlgan odatdagi gʻazalga har misra oxirida qofiyadan soʻng qoʻsh vaznning bir yoki ikki stopasi qoʻshiladi. U yangi qofiyaga ega boʻlib, gʻazalning umumiy qonuniyatiga boʻysunadi. Bu oʻziga xos naqoratdir”³⁹, – deb taʼkidlaydi. Sharqshunos olimning ushbu fikrlari ham mustazodning janriy xususiyatlarini aniq ochib berishga xizmat qilgan. Fitrat ham bu janr haqida yozadi: “Bir gʻazal yoziladir. Har misraʼ har baytidan keyin shul misraʼning bir boʻlagi vaznida soʻz orttiriladir. Bunga mustazod deyiladi”⁴⁰. Darhaqiqat, mustazodning lugʻaviy maʼnosi “orttirilgan, orttirma”⁴¹ ekanligi inobatga olinsa, uning har misrasi oxirida misraning bir boʻlagi – qism orttiriladi. XX asr oʻzbek sheʼriyatida Sobir Abdulla, Habibiy, E.Vohidov kabi ijodkorlar mustazodning badiiy mukammal namunalarini yaratdilar: *Jono, karaming birla sharafl*i nazaring bor, mendan xabaring bor, // *Koʻyingda necha volayu shaydo basharing bor, koʻp gʻamzalar*ing bor⁴². Habibiy qalamiga mansub ushbu mustazod janrning nisbatan kam tarqagan shakli hazaji musammani axrabi makfufi maqsuri mustazod vazni (- V/ V - - V/ V - - V/V -~) va ishqiy mavzuda bitilgan. Bu ham mustazodning gʻazal bilan uygʻunligini koʻrsatadi. “Sharafli nazar” esa sevgilining qarashlarini ifoda etadi. Ikkinchi toʻliq misrada esa oshiqning ichki kechinmalari va mahzun kayfiyatini bildirib keladi. “Koʻy” soʻzi koʻcha, yoʻl⁴³, “bashar” soʻzi “odam, kishi, inson”⁴⁴ maʼnolarida keladi. Yaʼni maʼshuqaga erishish yoʻlida qancha kishi

³⁶ Воҳидов Э. Сайланма. Икки жилдлик. Биринчи жилд. Муҳаббатнома. Шеърлар, дostonлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 285.

³⁷ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. 20-tolik. 16-jild. – Т.: Fan, 2000. – Б.350.

³⁸ Oʻsha manba. – Б. 143.

³⁹ Бертельс Э. Наваи и Джами. Москва: Наука, 1965. – С.188.

⁴⁰ Oʻsha manba. – Б. 142.

⁴¹ Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 492.

⁴² Ҳабибий. Девон. –Тошкент: Ғафур Ғулом, 1980. – Б.93.

⁴³ Oʻsha manba. – Б. 325.

⁴⁴ Oʻsha manba. – Б. 99.

“volayi shaydo” – oshiq, maftun. Erkin Vohidovning o‘z-o‘ziga savol shaklida yozilgan yuqoridagi mustazodi hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida yozilgan: *Umring o‘tadir, sen ne xayollar suradirsan, // beg‘am yuradirsan? // Maqsad ne, farog‘at kuyiga yo‘l buradirsan, Kimga jo‘radirsan?* She‘r axloqiy mazmunga ega bo‘lib, unda insonning yashashdan maqsadi, umrning yelday o‘tib ketishi, berilgan hayotni behudaga o‘tkazmaslik xususidagi g‘oyalar ilgari surilgan. Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yangi o‘zbek she‘riyatida musammatlar va masnaviy bilan bog‘liq vorisiylik”** tarzida sarlavhalangan. Dastlabki paragrafda *“Musallas va murabba‘ janrlarida an‘ana va vorisiylik”* haqida fikr yuritilgan. Bandli she‘r shakllaridan iborat bo‘lgan poetik guldastaning musammat nomi bilan atalishi, avvalo, ularda shakl masalasida o‘xshashlik mavjudligiga ishora qiladi. Bunday turkumdagi she‘r shakllarining paydo bo‘lishiga g‘azal zamin vazifasini o‘tagan. Zero, g‘azal arab, fors-tojik va turkiy adabiyotning eng faol janrlaridan bo‘lib, unda ifodalangan mazmunni kengaytirish, ijod o‘zanida erkinlikni ta‘minlash maqsadida musammat turkumidagi she‘r shakllari yuzaga kelgan. R.Orzibekovning ta‘kidicha: “Musammat va uning shakliy xillarida xuddi g‘azallardagidek shoirlarning adabiy taxalluslari, nisbatlarining keltirilishi hammusammatlarning g‘azal zaminida shakllanganligiga yana bir dalildir”⁴⁵. Bu turkumdagi she‘rlarning yashovchanligini ta‘minlagan jihat, bizningcha, ularning poetik mazmunda erkinligi hamda shaklda o‘zaro o‘xshashligidir. Zero, musammatda ijodkor o‘z poetik niyatidan kelib chiqib, uchlik misradan tortib o‘nlik misragacha bo‘lgan poetik ijod namunasini yaratishi mumkin. Shoir poetik g‘oyani “ipga tizar” ekan, bunda shakliy hamda mazmuniy yaxlitlikka alohoda e‘tibor qaratilishi lozim. Y.Ishoqov: “O‘zbek mumtoz she‘riyatida musallas uchramasligi, lekin dunyo poeziyasida bu janrning go‘zal namunalari uchrashini, jumladan, Dantening mashhur “Ilohiy komediya”si uchlikda yozilganligi, o‘zbek she‘riyatida Rauf Parfi bu janrga ko‘proq murojaat qilganligini” ta‘kidlasa⁴⁶, T.Boboyev: “Musallas – uch misrali band usulida yozilgan she‘r” sifatida ta‘riflaydi. T.Boboyev ham bu she‘r usulining o‘zbek mumtoz she‘riyatida keng tarqalmaganligini uqtirib, zamonaviy poeziyada uchrab turishini qayd etadi. D.Yusupova yozadi: “Musallas (ar. “uchlik”) – uch misrali band usulida yozilgan she‘r. Qofiyalanishi: a-a-a, b-b-a, d-d-a... (yoki: a-a-a, b-b-b...). G‘arbda tersina deb ataladi. Uning turkiy adabiyotdagi ilk namunasi “Qisasi Rabg‘uziy”da uchraydi (muqaddimada Nosiruddin To‘qbug‘abek madhi). Uvaysiyning “Rahm etib”, Hamzaning “Uxlama o‘zbek eli...” she‘rlari musallasga misol bo‘la oladi. ...Uchlik she‘r shakli Oybek, Mirmuhsin, A. Muxtor, Shuhrat, G‘.G‘ulom, R. Parfi, O. Matjon, O. Hojiyeva kabi shoirlarning barmoqda yozilgan she‘rlarida ham qo‘llangan”⁴⁷. Ko‘rinadiki, bu janr Uvaysiy, Hamza kabi mumtoz adabiyot vakillari ijodida ham uchragan. Oybek qalamiga mansub 4 banddan iborat “Qora qiz” nomli musallasda **an‘anaviy qofiya asosida betakror poetik manzara yaratilgan**. Aaa, bbb, vvv, ggg tarzida qofiyalangan musallas shaklida lirik qahramonning sevgilisiga samimiy murojaati fonida oshiqning ichki lirik

⁴⁵ Orzibekov R. O‘zbek lirik she‘riyati janrlari. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 72-73.

⁴⁶ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014. – B. 115-116.

⁴⁷ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – B. 193.

kechinmalari tasvirlangan. Bunda Oybek qoramag'iz qizning go'zalligini ifodalash uchun lablarni gilosga, ko'zlarini charosga o'xshatadi. Tajohuli orif san'ati vositasida lirik qahramon va qora qiz o'rtasida o'ziga xos poetik muloqot yaratadi: *Qora qiz, yo'ldan o'tarsan, // Ko'zlar-la ko'zni olarsan, // Ko'ngilni asta yoqarsan. // Lablarmi yoki gilosmi? // Ko'zlarmi yoki charosmi? // Bu kipriklar senga xosmi?*⁴⁸

Yangi o'zbek she'riyatida *murabba*'ning yuksak namunolari Cho'lpon, Oybek, G'.G'ulom, Mirtemir, Sobir Abdulla, Xayriddin Saloh kabi shoirlar ijodida uchraydi. U. To'ychiyev bandli she'r shakllarining ham band nomi, ham ma'lum bir janr nomini ifodalashini qayd etadi: "Mumtoz adabiyotimizda she'r qaysi band usulida yozilgan bo'lsa, ko'pincha, shu usul muayyan she'r janriga ham nisbat berilgan. Shu ma'noda masnaviy, *murabba*', muxammas, musaddas, musamman kabi istilohlar, birinchidan, band nomlarini ifodalagan bo'lsa, ikkinchidan, muayyan band usulida yozilgan she'r janrini ham belgilab bergan"⁴⁹. Demak, band ham she'r shaklini, ham ma'lum bir janrning istilohiy nomini ifodalab kelgan. G'afur G'ulomning "Shon muborakdur sanga", Chustiyning "Dehqon va ishchi" kabi *murabba*'lari ham shu yo'sinda, zamon ruhida yozilgan. Habibiyning "Sendek jonon", "Dilbarim", "Gulzorim go'zal", "Mujgonlaring" hamda Charxiyning "Sog'indim gul", "Bayon derman" kabi *murabbalarida* hayotsevarlik, insoniy inja tuyg'ular bilan bir qatorda yor vasfi, uning go'zalligini madh etish ustunlik qiladi. Bunday she'rlarda ishq muhabbat, yorug' xayollar, nurli manzillar tasviri asosiy o'rin tutadi. Bunday *murabbalar*, asosan, **barmoq vaznida** yaratilgan bo'lsa-da, ularning shakliy xususiyatlari, so'nggi bandda taxallusning keltirilishi, poetik timsol va manzara, ifodaning tadrijiyligi, qofiya unsurlari, badiiyati jihatdan mumtoz *murabba*'navislik an'anasining davomi sifatida qarash mumkin: *Men yayragan bog'im, gulzorim go'zal, // Gulzoringa loyiq dildorim go'zal. // Ko'nglimda asragan asrorim go'zal, // Dilda yorim degan takrorim go'zal*⁵⁰. Charxiyning "Sog'indim gul" nomli an'anaviy ishqiy kechinma, yor jamoli, hijron motivlari tasvir etilgan quyidagi *murabba*'sida ham poetik timsol va tasvirda adabiy izdoshlik nazarga tashlanadi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida "*Muxammaslarda mazmuniy ko'lamdorlik*" deb nomlangan. Yangi o'zbek she'riyatida, muxammasning har ikki xilida barakali ijod qilindi. 1. *Mustaqil muxammaslar*. Habibiy devonida 64 ta muxammas namunasi mavjud bo'lib, shundan 58 tasi ta'bi xud muxammaslar, 6 tasi esa taxmislardir. Taxmislar Alisher Navoiy (1), Fuzuliy (2), Furqat (1), Sobir Abdulla (2) g'azallariga bog'langan. Habibiy devonidagi muxammaslar yor, diyor, vatan, axloq, jamiyatda yuz berayotgan voqealar tasviriga bag'ishlangan. G'afur G'ulom ham bu janrga murojaat qilib, uning yorqin namunalarini yarata olgan ijodkordir. Shoir she'riyatidagi 10 muxammasdan 9 tasi ta'bi xud bo'lib, 1 tasi Alisher Navoiy g'azali asosida yozilgan taxmisdir. *Ajab jononlar ichra tengi yo'q gulchehra jononim, // Jahon gulzorining oroyishi sarvi xiromonim, // Yurak urgay dukullab o'ylasam to'lqin bila qonim, // Hayotim lazzati, jon birla tong yorim*

⁴⁸ O'sha manba. – B. 152.

⁴⁹ Тўйчиев У. Ўзбек совет поэзиясида бармоқ системаси. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.130-162.

⁵⁰ Хабибий. Девон. –Тошкент: Гафур Ғулом, 1980. –Б. 337.

qadrdonim, Tutar albatta qoshimda maqom ohista-ohista⁵¹. Habibiyning quyidagi tab'i xud muxammasi uslubining o'ziga xosligi, tilining ravonligi, vaznining o'ynoqiligi bilan o'quvchiga ko'tarinki kayfiyat, estetik zavq beradi. Qolaversa, shoir Sharq she'riyatining yetakchi ishq-muhabbat mavzusini ifodalashda Alisher Navoiyga izdosh, ma'shuqa tasviriga navoiyona yondashganligiga guvoh bo'lamiz. Unda adabiy ta'sir izlari mavjud bo'lsa-da, shoirning individual mahorati ham aks etib turibdi. Habibiy mustaqil muxammaslari janr talablariga mos keladi. Ularda taxallus, asosan, oxirgi bandning yuqori qismida keltiriladi.

G'afur G'ulomning "Oqibat" radifli muxammasi Alisher Navoiyning "Navodir ush-shabob" devonidagi "Yoshurun dardimni zohir qildi afg'on oqibat" deb boshlanuvchi 72-g'azaldan ijodiy ta'sirlanish asosida yaratilgan⁵². Shoirning ramali musammani mahzufda yozilgan ikki banddan iborat mustaqil muxammasida shoirning kinoyaviy va istehzoli qarashlari aks etgan: *Bir kasal do'sting ozib, bo'ldi ramaqjon oqibat, //Qilmadi sendan tama' bir juftgina non oqibat, //Oqibatda shoiro, yozmaklik oson oqibat, //Sog'inib qoqdi eshik aylab qadrdon oqibat, //Aylagay do'stlar uchun eng yaxshi inson oqibat*⁵³. Sodda, ravon, serma'no so'zlar vositasida fikr ifodalash – G'afur G'ulom uslubining boshqa ijodkorlardan ajralib turadigan jihatidir. Kasallikka chalingan do'stning bitta non ham tama' qilmay, faqatgina diydor, hol-ahvol so'rashi uchun do'stining yo'liga ko'z tikishi holatini shoir hayotiy, haqqoniy tasvirlagan.

Muxammasnavislik an'anasi E.Vohidov, J. Kamol, Z. Ne'mat kabi shoirlar ijodida muvaffaqiyatli davom ettirildi. Bu davr muxammaslarida ijtimoiy mazmun kuchaydi. Binobarin, E.Vohidovning "Ajab ermas" muxammasi zavqiyona uslubda bitilgan: *Bu kunlar katta yo'lda// Bir dovon o'lsa ajab ermas, //Muqarrar ortida yo'l//Keng, ravon bo'lsa ajab ermas, //Vatanga sidqu imon//Imtihon bo'lsa ajab ermas, //Farovon yurtu olam, // Tinch jahon bo'lsa ajab ermas, //Biz etgan barcha orzular// Ayon o'lsa ajab ermas/*. Ma'lumki, Zavqiyning "Ajab ermas" nomli mashhur muxammasi yangi tuzumni orzu qilgan xalqni orzularini ifoda etishi bilan e'tiborni tortadi. Sababi, shoir ko'plar qatori oktabr to'ntarishiga katta umid bog'lagan. Shu bois u kelajakka ishonch ruhi bilan qarab, umidli satrlar bitgan. E.Vohidov muxammasi istiqloлга shukronalik hislari bilan to'lib-toshgan. Binobarin, katta yo'l mustaqillik yo'li. Shoir istiqloлга katta umid bog'laydi va uning yo'li keng, ravon bo'lishini istaydi. Jamol Kamolning "Vatan haqida muxammas"ini yurtga bo'lgan qaynoq mehr ifodasi, deyish mumkin: *Har safar boqsam falakka, bir ajoyib xoli bor, //Men Vatan vasfiga so'z aytsam, so'zimning boli bor, //Bu chamanning oy ila yulduz degan timsoli bor, //To jahonda bu Vatanning erku istiqloli bor, //Xalqini olam sharaflar, baxt ila iqboli bor*⁵⁴. Ushbu satrlarda Vatan falakning ajoyib xoliga o'xshatilgan. Zero, bu shunday qaynoq tuyg'uki, u haqda so'zlangan vaqtdagi so'zlar ham asalday shirin bo'ladi.

2. Taxmislar. Habibiy ijodida 6 ta taxmis uchraydi. Ular orasida shoirning Fuzuliy g'azaliga bog'lagan muxammasi e'tiborli. Taxmisda his-tuyg'ularning tabiiy oqimi, Fuzuliy va Habibiy tasvir mahoratining o'ziga xosligi, ifodaning

⁵¹ Хабибий. Девон. –Тошкент: Гафур Фулом, 1980. – Б. 362.

⁵² Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 3-том. Наводир уш-шабоб. –Тошкент: Фан, 1988. – Б. 54-55.

⁵³ Гафур Фулом. Мукамал асарлар тўплами. Учинчи том. Шеърлар. – Т.: Фан, 1984. – Б.372.

⁵⁴ Жамол Камол. Ёнаётган дала. Сайланма. Олти жилдлик. 2-жилд. –Тошкент: Ғ.Фулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. –Б. 247.

soddaligi, lirik qahramon zavqu ishtiyoqining beg‘uborligi she‘riy misralarda poetik san‘atlarning o‘zaro mushtarak, bir-birini to‘ldirib kelishi taxmis ikki ijodkor qalbning ma‘naviy-ruhiy vobastaligi mahsuli ekanligini dalillaydi. Taxmis bandlarida poetik fikr, obraz, tuy‘gu, tushuncha va ifodaning o‘zaro mutanosibligi tanosib san‘atini yuzaga keltirgan: *Ko‘nglim olgan bir go‘zallarning go‘zal jononidur, // Qalbi pok ishq ahlining vijdoni, balkim jonidur, // Partavafshonlikda husn avjin mahitobonidur, // Ul parivashkim malohat mulkining sultonidur, // Hukm oning hukmidur, farmon aning farmonidur*⁵⁵. G‘afur Gulom ijodida Alisher Navoiyning “*Mening firoqimu aning visoli tun bila tong, // Bu nav’ dahrda yo‘q ehtimole tun bila tong*” matlali 363-g‘azaliga⁵⁶ bog‘langan taxmisi ahamiyatlidir. Taxmisnavislik an‘anasiga muvofiq, G‘afur G‘ulom ham unda shu vazn va baytlar miqdoriga mos 7 bandli she‘r yaratgan. Misralarning shakliy mutanosibligi musiqiy ohangdoshlikni vujudga keltirgan. G‘afur G‘ulom g‘azalning mazmunini g‘oyaviy-badiiy jihatdan davom ettirib, ma‘no uyg‘unligi, mantiqiy yaxlitlikka erishgan. Har misra boshida takrorlangan “mening” so‘zi ma‘no kuchaytirishga, shoirlarning poetik maqsadini bo‘rttirishga, mazmunda ta‘kidning o‘rnini belgilashga xizmat qilgan. Alisher Navoiy g‘azalida shoir matladan to maqtagacha tun bilan tong qarshilantirishi asosida mazmunni yuzaga chiqarib, tasvir uslubini shu maqsadga yo‘naltirgan bo‘lsa, G‘afur G‘ulom ham shu go‘zal usulni saqlash orqali navoiyona misralar mag‘zini o‘quvchiga yetkaza olgan: *Mening qarog‘imu oning jamoli tun bila tong, // Mening zavolimu oning kamoli tun bila tong, // Mening kuyuk mahim, oning hiloli tun bilan tong // Mening firoqimu oning visoli tun bila tong, // Bu nav’ dahrda yo‘q ehtimoli tun bila tong*⁵⁷.

Erkin Vohidovning Navoiy, Fuzuliy, Bobur, qozoq shoiri Jumakent Najmiddinov g‘azallariga bog‘lagan taxmislari mashhur. Bobur Mirzoning “Qachon bo‘lg‘ay, musharraf bo‘lgamen, jono, jamolingga” matlali g‘azaliga bog‘lagan taxmisi ifodada, g‘oyaviy-badiiy niyatda uyg‘unlik kuzatiladi. Paragrafda shu nuqtayi nazardan J.Kamol, S.Sayyid, Z.Ne‘mat taxmislari tahlil etilgan.

Bobning uchichi paragrafida “*Musaddas, muashshar transformatsiyasi*” o‘rganilgan. Bandli she‘r shakllaridan iborat bo‘lgan poetik guldastaning musammat nomi bilan atalishi, avvalo, ularda shakl masalasida o‘xshashlik mavjudligiga ishora qiladi. Bunday turkumdagi she‘r shakllarining paydo bo‘lishiga g‘azal zamin vazifasini o‘tagan. Zero, g‘azal arab, fors-tojik va turkiy adabiyotning eng faol janrlaridan bo‘lib, unda ifodalangan mazmunni kengaytirish, ijod o‘zanida erkinlikni ta‘minlash maqsadida musammat turkumidagi she‘r shakllari yuzaga kelgan. Bu turkumdagi she‘rlarning yashovchanligini ta‘minlagan jihat, bizningcha, ularning poetik mazmunda erkinligi hamda shaklda o‘zaro o‘xshashligidir. Adabiy an‘ana – o‘tmish adabiyoti to‘plagan ijodiy tajribalar qaymog‘i, davrlar o‘tishi bilan ahamiyatli va dolzarbligini yo‘qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qismi... Har bir avlod o‘tmish adabiyotiga saylab munosabatda bo‘ladi, unga faol ijodiy yondashadi, salafjar tajribasini o‘z davri qo‘ygan badiiy-estetik vazifalarni bajarishga xizmat

⁵⁵ Хабибий. Девон. – Тошкент: Гафур Гулом, 1980. – Б. 400.

⁵⁶ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 3-том. Бадойёе ул-васат. –Тошкент: Фан, 1990. – Б. 269-270.

⁵⁷ Гафур Гулом. Мукаммал асарлар тўплами. тўртинчи том. Шеърлар. – Т.: Фан, 1984. –Б.343.

qildiradi”⁵⁸.

XX asr o‘zbek adabiyotida ro‘y bergan shakl va mazmun yangilanishlari musaddasga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Natijada janrning barmoq vaznidagi xilma-xil namunalari yaratildi. Jumladan, shoir Habibiyning “Otaxonlar”, “Sen kabi yor”, “Mehnat yallasi” kabi she’rlari mavjud. Ular har olti misralik 4-5 banddan iborat she’rlar bo‘lib, har uchalasining qofiyalanish tartibi bir xil, ya’ni dastkabki band misralari o‘zaro qofiyalanadi, keyingi bandlarning avvalgi to‘rt misrasi o‘zaro qofiyalanib, so‘nggi ikki misrasi esa har band yakunida aynan takrorlanadi: – a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-a-a kabi. Qalamga olingan mavzu ham turlicha: ishqiy, ijtimoiy. “Otaxonlar” oltiligi ilmiy, nuroniy, hayotiy tajribaga ega otalar haqida bo‘lsa, “Mehnat yallasi” esa inson va uning mehnatga munosabati, mehnatning inson hayotidagi o‘rni haqida: *Mehnatda erur kamoli inson, //Ham ilm-u fununga madan-u kon, //Ham bog‘-u chaman, kitob, doston, //Hal bo‘lgusi barcha ahd-u paymon, //Qilmaydi jahonda xor mehnat, //Shon-u sharaf-u mador mehnat*⁵⁹.

Charxiy Farg‘ona va O‘zbekiston haqidagi musaddaslari qofiyalanish tartibiga ko‘ra janr talablariga javob bersa-da, so‘z qo‘llash, mazmun va poetik jihatdan qimmatli yuksak deb bo‘lmaydi. Ularda zamonasozlik va o‘sha davr mafkurasining ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoirning Hamza haqidagi “Noming abadiy” oltiligi haqida ham shunday fikr aytish mumkin: *O‘zbek elining faxri, sardori, adibi, //Do‘stlar tanining joni, yurak qoni, habibi, //O‘tkir qalaming nayzasi dushmanning nasibi, //Ijoding vatan madhiyasini ziynatu zebi, //Yangraydi mudom dilda bahoring nayi sozi, //Noming abadiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy*⁶⁰. Besh banddan iborat ushbu oltilikning birinchi bandi o‘zaro (a-a-a-a-a), har bandning 5-misrasi esa birinchi bandga qofiyalangan, oltinchi misrasi esa aynan takror qo‘llanilgan. Charxiy ijodidagi oltiliklar keyingi davr da janr rivoji uchun o‘ziga ga kelishida ko‘prik vazifasini bajargan.

Abdulla Oripovning “Sen bahorni sog‘inmadingmi?” nomli XX asr she’riyatida hodisa bo‘lgan she’rini ham “barmoqlashgan” musaddas deyish mumkin. Jamol Kamolning “Kitobsiz el” musaddasi kitobxonlik mavzusidan bahs etadi. Paragrafda ushbu musaddaslar tahlil etilgan.

Musammat tarkibida mavjud eng oxirgi she’riy shakl – muashshar ham “mumtoz adabiy an’analar ko‘prigi”ning bir ustuni sifatida yashab kelishi bejiz emas. Bu shaklda ijod qilish so‘z san’atkorlari uchun ancha qiyinchilik tug‘dirgani bois, mumtoz adabiyotda muashshar yozgan shoirlar sifatida Nodira, Ahmad Tabibiy va Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniyning nomlari qayd etiladi. Zamonaviy adabiyotda o‘nlik shaklida ijod qilish G‘afur G‘ulom, Abdulla Oripov, Jamol Kamol kabi shoirlarning ijod laboratoriyasida uchraydi. Bunday izlanishlarni muashshar deb emas, muashshar transformatsiyasi natijasi bo‘lgan o‘nliklar deya nomlash mumkin. G‘afur G‘ulomning “Emikdoshlar musobaqasi” nomli muashsharini adabiy an’ana va izdoshlik yo‘nalishdagi urinishlarining natijasi deb baholash mumkin. Abdulla Oripov ijodida ham “Tabiat” nomli 4 banddan iborat

⁵⁸ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б.12

⁵⁹ Хабибий. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1980. – Б. 407.

⁶⁰ Чархий. Қиёлаб ўтди: шеърлар. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б.151.

o'nlilik namunasi bo'lib, tabiatga murojaat tarzida yozilgan. Unda ijodkorning mahorati betakror obraz yaratish, yuksak badiiyat, poetik tasvir va mazmun uyg'unligida ko'zga tashlanadi. Abdulla Oripov tabiat va bolalilik, tabiat va inson, tabiat va singil, tabiat va aka, tabiat va ota, tabiat va ona birliklari orqali tabiatni shaxslantiradi. Tashxis san'ati vositasida tabiatga murojaat qilib, qalbidagi eng yorqin bolalik xotiralari, samimiy tuyg'ularini o'rtoqlashadi: *Uzoqlarda qoldi tug'ilgan uyim, //Ajib bolaligim qoldi uzoqda. //Qoldi xommapishga kōmilgan uyim. //Qoldi singillarim bari yiroqda.//Endi men eslayman kōzlarimda nam, //Ōsha yillarimning otash sehrini. //Qōmsab talpinaman gohi-gohi dam//Munis singillarim ma'yus mehrini, //Shunday paytda ōzing aylagil shafqat, Singil bōla qolgil, menga, tabiat*⁶¹. O'nlilik mumtoz adabiyotda uchraydigan an'anaviy radd-ul-ajuz al-as-sadr (takrir) san'atining go'zal namunalari asosida yaratilgan.

Bobning keyingi paragrafida *"Masnaviy janri va shaklidagi she'rlarga xos xususiyatlar"* yoritilgan. XX asr o'zbek she'riyatida masnaviy janri va shaklidagi asarlar o'ziga xos tizimni tashkil etadi. Bu she'rlarning o'ziga xosligi shundaki, masnaviyda qofiyalanish shakli, aruz vazni saqlangani holda uni barmoqqa moslashtirish an'anasi yuzaga kelgan. Yangi o'zbek she'riyatida *aruzdagidan ko'ra barmoqdagi masnaviyning faollashganligi kuzatiladi*. Maqsud Shayxzoda ijodida masnaviy janri va shakli muhim o'rin tutadi. Shoirning jangovar lirikasi, ayniqsa, falsafiy mazmundagi *"Kurash nechun?"* she'ri masnaviy shaklida yozilgan: *Zafarning nash'asin totigan erlar: //“Sulh desang, urushda yengib chiq”, derlar, //Bu kurash hayotning qonuni uchun, //Bu – chorak asrning yakuni uchun. //Pushkinning dostoni, Tolstoy uchun. //Vaqtincha to'xtagan xolis to'y uchun. //Bu – elning go'dagi, choli, go'zali, //Navoiy “Xamsa”si, Bobir g'azali, //Dutorning muloyim unlari uchun, //Ijodning muhtasham kunlari uchun*⁶². Shoir 23 baytdan iborat she'rda *"Kurash nechun?"* degan savolga hayotiy javob beradi. Masnaviydagi ohangdosh so'zlar esa aynan shu mazmunni ifodlovchi kalit so'z vazifasini bajargan. Ma'lumki, urush yillarida xalqning asosiy kuchlari urushga safarbar qilindi. *"Zafarning nash'asin totigan erlar"* istiora bo'lib, jang maydonlarida Vatan uchun jon olib, jon berayotgan mard o'g'lonlarni ifoda etadi. Darhaqiqat, urush yillarida bosilgan har bir qadam, otilgan har bir o'q Vatan uchun edi. Shuning uchun shoir *"Bu kurash hayotning qonuni uchun"* deydi. Keyingi baytda Pushkin va Tolstoy talmeh bo'lib kelgan. Bu ikki ulug' siymoga ishora qilinishi esa o'z erkini, tinchligini himoya qilishga otlangan xalqparvar ellarni bildrib keladi. Qolaversa, she'rda o'ziga xos syujetlilik, voqeabandlik ham ko'zga tashlanadi. Demak, *"erlar"* – *"derlar"*; *"go'zal"* – *"g'azal"*, *"qonun"* – *"yakun"*; *"Tolstoy"*; *"go'zali"* – *"g'azali"*, *"unlari"* – *"kunlari"* kabi ohangdosh so'zlar g'alabaga bo'lgan ishonch ruhini ifodalashga xizmat qilgan. Paragrafda shu nuqtayi nazardan Zulfiya, E.Vohidov, A.Oripov, S.Sayyid masnaviylari tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **"Yangi o'zbek she'riyati kichik lirik mumtoz janrlarda shakliy uslubiy yangilanishlar"** tarzida sarlavhalangan va ikki paragrafdan iborat. Birinchi paragrafda *"Yangi she'riyatdagi ruboiy va tuyuqlar poetikasi"* haqida fikr yuritilgan. XX asrda ruboiynavislik an'anasi

⁶¹ Орипов А. <https://abituriyentlar.uz/sherlar-toplami/abdulla-oripov-sherlari/>

⁶² Мақсуд Шайхзода. Чорак аср девони. – Тошкент: Ўзбекистон давлат Бадий адабиёти нашриёти. – Б.54.

to'xtamagan bo'lsa-da, bu borada sezilarli muvaffaqiyatga erishilgan emas. Qator shoirlar bu janrda ijod qildilar. Buni Charxiy, Sobir Abdulla, Maqsud Shayxzoda, Shukrullo, Jamol Kamol, Ramz Bobojon kabi shoirlar ijodi tasdiqlab turadi. Charxiy yangi adabiyotda mumtoz an'alarini ijodiy davom ettirgan shoir sifatida ruboiylar ham yozdi: *Shakardan shaxd tuzmak istasang lafzi shakarda bo'l, // Ishi shoyista, doim va'dasi chan muxtasardan bo'l, // Hayodan xil'ati zebo kiyib xulqingga oro ber, // Libosi zarvaraq bu husn emas, mis bo'lma, zardan bo'l*⁶³. Yuqoridagi ruboiy maf'uvlun, mafoiylun, mafoilun, mafoiylun tarmog'ida, hazaji musammani axram vaznida bitilgan. Agar ruboiyning musaddas ruknida yozilishi inobatga olinsa, bu she'rda biroz saktalikka yo'l qo'yilgan. Mavzu jihatidan esa mumtoz ruboiylarga mos keladi: shakardan shahd – asal qilmoqchi bo'lsang, o'zingning ham tiling shirin bo'lsin. Har bir ishning o'z vaqtida bajarish, va'daga amal qilish ta'kidlangan. Keyingi misralarda fikr istiora orqali ifoda etilgan: shoir lirik qahramoniga hayodan xil'at – kiyim kiyib, xulqini chiroyli qilishini aytadi. To'rtinchi satrda ham metaforik fikrlash tarzi ko'zga tashlanadi. Bunda tadrijiy ravishda insonning mis emas zar – oltin bo'lishi kerakligi uqtirilgan. Maqsud Shayxzodaning badiiyati yuksak she'rlari qatorida mag'zi to'q ruboiylar ham alohida o'ringa ega: *Men seni taniyman – lafzing haloldir, // Ishni chala qo'ymoq dilga maloldir. // Qo'yganing – yutqizish; terganing – yutuq. // Ilg'or dong chiqarar, qoloqlik – loldir*⁶⁴. Ushbu misralar shoir yashagan davr manzarasini ko'z oldimizga keltiradi. Hayotning mazmunini faqat mehnatda ko'rilgan o'tgan asrning 50-60 yillarida shunday she'rlarga ehtiyoj bor edi. Shuning uchun ham shoir ilg'orlik va qoloqlikni zid qo'yadi va mehnatkashlikni targ'ib etadi.

Jamol Kamol ruboiylari Navoiy va Boburning ruboiylari bilan uyg'unlik kasb etganligini kuzatish mumkin. **Boburda:** *Jonimda mening hayoti jonim sensen, // Jismimda mening ruhu ravonim sensen, // Boburning seningdek yo'q yori aziz, // Alqissaki, umri jovidonim sensen*⁶⁵. **Jamol Kamolda:** *Lutfig-la suyukligimni sen bilsang edi, // Mehring-la buyukligimni sen bilsang edi. // Yoqqan olovingda o'rtanib, ey jon, // Har lahza kuyukligimni sen bilsang edi...*⁶⁶ Yuqoridagi ikki ruboiy mavzu, mazmun jihatdan mutanosibdir. Avvalo, ishq mavzusi bu uch ruboiyni bog'lab turibdi. Qolaversa, obraz birligi, ya'ni «sen» ikkinchi shaxs kishilik olmoshida aks etgan ma'shuqa timsoli birlashtirib turibdi. Shu bilan birga Navoiyda “umri aziz”, Boburda “hayoti jon”, “ruhi ravon”, “umri jovidon”, J.Kamolda “ey jon” bu obrazning yanada aniqlashtirilgan tashbehlaridir.

Yangi o'zbek she'riyatida tuyuqlar ham yaratilgan. Charxiy, Habibiy, G'.G'ulom, J.Jabborov, Z.Ne'mat kabi shoirlar ijodidagi janr namunalari fikrimizni tasdiqlab turadi. Bu tuyuqlar mumtoz adabiyotdagi kabi mazmun va shakl jihatidan mukammallik kasb etmagan bo'lsa-da, ko'p asrlik adabiy an'analarning davomi sifatida ahamiyatlidir: *Gar ishlamasa jigardagn o't, // Ortiqcha yemakni bahridan o't. // Ko'rdingmi? Vujudini quritgay, // Gullarga o'ralsa zarpechak o't*⁶⁷. Charxiyning yuqoridagi tuyug'ida “o't” omonimi birinchi

⁶³ Чархий. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, санъат нашриёти. 1972. – Б. 209.

⁶⁴ O'sha manba. – B. 303.

⁶⁵ Захириддин Мухаммад Бобур. Девон. – Тошкент: Фан, 1994. – Б. 89.

⁶⁶ Жамол Камол. Ёнаётган дала. Сайланма. Олти жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. – Б. 283.

⁶⁷ Чархий. Девон. – Т.: Бадий адабиёт, санъат нашриёти. 1972. – Б. 213.

satrda “o‘t” so‘zi insonning bir asosiy organi, ikkinchi misrada “harakat” – fe‘l, to‘rtinchi satrda esa o‘t – zarpechak o‘simligi ma’nosida kelgan. Ya’ni agar insonning o‘t qopi ishlamasa, ortiqcha yeyishning bahridan o‘tish kerak. Bu huddi gullarga o‘ralgan zarpechakning ularni quritishiga o‘xshaydi. Tuyuqning ramali musaddasi maqsurda yozilishi inobatga olinsa, bu she’r unga shaklan tushmaydi. G‘afur G‘ulomning “Piyanistalar haqida to‘rt tuyuq” turkumi hajviy-yumoristik mazmunga ega: *Aroq degan yerda eldan kechadi, // Chorakta ko‘rsatsang, botqoq kechadi. //– Bugun ham ichibsan, – desangiz aytar: //– Yanglishma, bugunmas, uni kecha, de*⁶⁸. Bu she’r mazmun jihatidan tuyuq talablariga mos keladi. Ya’ni “kechadi” shakldosh so‘zi uch xil ma’noda kelgan. Birinchi satrda “kechadi” – voz kechish, ikkinchi misrada botqoqni ham bosib o‘tish, to‘rtinchi misrada kecha – ravish turkumi ma’nosida keladi. Zikrilla Ne’mat qalamiga mansub tuyuqlarda ana shu an’naning muvaffaqiyatli davom ettirilganini ko‘rish mumkin: *Navbahor o‘tdi-yu, keldi fayzli yoz, // Bog‘u rog‘larga chiqib, ko‘nglingni yoz. // Kunduzi do‘stlar ila o‘ynab-kulib, // Kechalar yoz/dek go‘zal she‘ringni yoz!*⁶⁹ // – V – – / – V – – / – V – fo- i-lo-tun/ fo- i-lo-tun/ fo- i-lun. Bu tuyuq mazmunan Zahiriddin Muhammad Boburning “Yoz fasli, yor vasli, do‘stlarning suhbat, She’r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati” bayti bilan boshlanadigan, laff va nashr san’ati qo‘llangan g‘azalini yodga soladi, ammo u to‘rtlik shaklida, tuyuq janrida yaratilgan. Qofiyasi uchun omonim, ya’ni shakldosh “yoz” so‘zi tanlangan.

